



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

4- kurs 012-16 guruh talabasi

Umarova Dilfuza Xolmurod qizining

*“5120100 filologiya(ingliz tili)” ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini
olish uchun*

**“XVIII asr ingliz ma`rifatchilik adabiyotida asosiy adabiy janrlarning
spetsifikasi”**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

kat. o`qit. Z. Shukurova

“Himoyaga tavsiya etildi”

Xorijiy tillar fakulteti

dekani _____ dots. Yo.N. Hamrayeva

“ _____ ” _____ 2016 yil

Qarshi – 2016 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BOB. XVIII asr Ingliz ma’rifatchilik davri adabiyotida she’riyat janrining rivoji va uning taniqli namoyondalari

1.1 Ma’rifatchilik davri adabiyoti haqida umumiy ma’lumot7

1.2 She’riyat janrining o’ziga xos xususiyatlari11

1.3 Aleksandr Poup-noyob poyetik mahorat sohibi17

1.4 Robert Berns – erksevar shoir, millat va Vatan kuychisi.....22

I bob yuzasidan xulosa.....29

II BOB. Ingliz ma’rifatchilik adabiyotida drama janrining o’rni va ahamiyati

2.1. Drama spetsifikasining muhim jihatlari30

2.2. R.B.Sheridan – o’z davrining atoqli dramaturgi49

2.3. Samuel Jonson- serqirra ijodkor.....53

II bob yuzasidan xulosa55

XULOSA.....56

Ilmiy adabiyotlar.....58

Badiiy adabiyotlar va lug’atlar.....59

KIRISH

Ma'lumki, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik xarakterda ekanligi muhim tamoyil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim islohotlarida ushbu tamoyillarga asoslangan, ta'lim oluvchilarning har tomonlama uyg'un kamol topishi, erkin va mustaqil fikr yuritishga yo'llaydigan ta'limning mukammal mexanizmini yaratish muhim vazifa qilib qo'yilgan.

Har bir inson, har bir xalq o'z ma'naviy ehtiyojlarini, kechinmalarini, g'oya va maqsadlarini so'z orqali ifoda etadi. Zero, so'z buyuk qudratga ega. Ana shu qudratga ishonganlar adabiyot deb atalmish katta maydonga chiqib so'zlashga jazm etadilar. Aynan adabiyot so'z vositasida inson ma'naviyatining go'zal qirralarini namoyon etadi, uni yanada yuksaklikka, kamolotga undaydi. Insoniyat tarixi ana shu fikrni mudom tasdiqlab turibdi.

Biz xorijiy tilni o'rganar ekanmiz, bunda nafaqat tilni, balki uning adabiyotini ham o'rganmog'imiz zarur. Bu bilan o'sha millat hayotini, tarixini, bosib o'tgan taraqqiyot davrini o'rganamiz, millat ruhiyati bilan, urf-odat va an'anlari bilan tanishamiz va bu bilan o'sha xalqqa yanada yaqinroq bo'lamiz. Bu esa kishi qalbida nafaqat ona xalqini sevish va e'zozlashga, balki boshqa xalq va millat ahlini ham hurmat qilishga va qadrlashga o'rgatadi.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida shunday ta'kidlaydi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi". Shu ma'noda yurtboshimiz ma'naviy tarbiya borasida adabiyotning roliga yuksak baho beradilar: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta". Bu ijodkorga berilgan ulkan

ta'rif va katta e'tibor. Zotan, inson jismini harakatga keltiradigan ruhga sayqal berish oson amal emas. Alalxusus, so'z san'atining millat taraqqiyotidagi o'rni beqiyos.

Mavzuning dolzarbligi. XVIII asrda Yevropada taraqqiyparvar kuchlarning chirigan o'rta asrchilik tartiblariga qarshi kurashi siyosiy tus ola boshlagani kabi, adabiyotda ham bu kurash jangovor ma'rifatchilik ruhini namoyon eta boshladi.

“Ma'rifat” so'zi keng ma'noda xalqni bilimli, ma'rifatli qilish ma'nosida qo'llansa, tor ma'noda burjuaziyaning feodalizmga qarshi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi.

Ma'rifatchilik adabiyotining estetik qarashlari shu bilan qadrlidiki, shoir va yozuvchilar san'atning tarbiyaviy ahamiyatini jamiyatni qayta qurish manfaatlariga xizmat qildirdilar. XVIII asr yozuvchilari ma'rifatchilik ruhidagi siyosiy-falsafiy roman, falsafiy povest, siyosiy axloqiy xarakterdagi dramatik asarlar yaratdilar.

XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida targ'ib qilingan insonparvarlik, erksevarlik, aql-zakovat, xalqni ma'rifatli qilish yo'li bilan jamiyatni qayta qurish g'oyalarining o'sha davr she'riyati va dramaturgiyasida qay darajada aks etganligini o'rganish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligidir.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyoti taniqli adabiyotshunos olimlar S.D.Artamonov, B.G.Belinskiy, I.V.Arnold, I.Sulton, E.Xudoyberdiev, N.Shukurov, O.Qayumov, Q.Azizovlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida she'riyat va dramaturgiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'sha davrning taniqli shoir va dramaturglari ijodi namunasida yoritib berishdir.

Bitiruv malakaviy ishining obykti XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotiga oid, xususan she'riyat va dramaturgiya janrlarida ijod qilgan adiblarning badiiy asarlari ushbu bitiruv malakaviy ishining obykti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga doir ilmiy, nazariy manba'larni o'rganish, tahlil qilish.
2. O'rganilayotgan mavzu dolzarb muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash.
3. Ingliz adabiyotida XVIII asr ingliz ma'rifatchilik adabiyotining mavqei va ahamiyatini aniqlash.
4. Ma'rifatchilik davri she'riyati va dramaturgiyasining taniqli vakillari ijodida ilgari surilgan progressiv g'oyalarning mohiyatini har tomonlama yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida roman janrining shakllanishi adabiyotshunos olimlar tomonidan keng yoritilgan. Lekin lirika va drama janri sohasiga oid ma'lumotlar yetarli darajada o'rganilgan deb ayta olmaymiz.

XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida lirika va drama janrining rivoji va uning ahamiyati, shuningdek bu janrlarda yaratilgan asarlarning tarbiyaviy ahamiyatini yoritib berish bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligidir.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati

Mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy xulosalari adabiyotshunoslik, chet el adabiyoti tarixi, ingliz adabiyoti tarixi fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, ulardan XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida she'riyat va drama mavzusida amaliy mashg'ulotlar o'tishda foydalanish, shuningdek shu mavzuda ilmiy maqolalar yozishda qo'llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan

Birinchi bob XVIII asr ma'rifatchilik adabiyotida she'riyatning rivoji, uning taniqli namoyondalari bo'lgan Aleksandr Poup va Robert Berns ijodini har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek bu bobda lirika janriga to'liq xarakteristika berilgan.

Ikkinchi bob XVIII asr ma'rifatchilik davri adabiyotida drama janrining o'rni va mavqei, uning taniqli vakillari ijodini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqot jarayonida hosil qilingan fikrlar xulosada umumlashtirilgan. Bitiruv malakaviy ishida shuningdek, foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar hamda lug'atlar ro'yxati berilgan. Ishning umumiy hajmi ... bet.

I BOB. XVIII asr Ingliz ma’rifatchilik davri adabiyotida lirika janrining rivoji va uning taniqli namoyondalari

1.1 Ma’rifatchilik davri adabiyoti haqida umumiy ma’lumot

XVII va XVIII asrlar jahon tarixida yangi davrni boshlab berdi. XVII-XVIII asrlardagi ingliz va fransuz burjua inqiloblari o’rta asrlardagi eski tartiblarni yemirib tashladi. Ming yildan ortiq vaqtdan buyon hukmronlik qilib kelayotgan feodal tuzumiga zarba berdi, jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko’tardi.

Ma’rifatchilik adabiyoti- feodal asoslarga qarshi o’laroq maydonga chiqib, XVII-XVIII asrlarda G’arbiy Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng yoyilgan g’oyaviy-mafkuraviy harakat, shu harakat g’oyalarini o’zida singdirgan va targ’ib etgan adabiyotdir.

“Ma’rifat” so’zi keng ma’noda xalqni bilimli, ma’rifatli qilish ma’nosida qo’llansa, tor ma’noda burjuaziyaning feodalizmga qarshi avj olgan davrdagi aqliy harakatni ifoda etadi. Burjuaziya o’limga mahkum etilgan o’rta asrchilik tartiblariga qarshi kurashda ma’rifatparvarlikdan g’oyaviy qurol sifatida foydalanadi.

Yevropaning turli mamlakatlarida ma’rifatchilikning maydonga kelishi vaqt jihatidan farqlanadi. U dastlab Angliyada yuzaga kelgan bo’lsa, ijtimoiy shart sharoitlarning yetilishi barobarida qit’aning boshqa mamlakatlariga yoyilgan va ularning har birida aniq shart-sharoitlar bilan bog’liq tarzda kechgan.

“Mutaxassislar ma’rifatchilikni “falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiya”, yangicha dunyoqarashga asos bo’lgan mafkura deb hisoblaydilar. Yangi mafkuraning o’zagini “inson aqli zakovati dunyoni o’zgartiradi” degan qarash tashkil qiladi. Ma’rifatchilik harakati burjua demokratiyasi, ijtimoiy taraqqiy, ijtimoiy tenglik va adolat, shaxs erkinligi kabi g’oyalar bilan maydonga chiqqan”¹. Ma’rifatchilik namoyondalari feodal monarxik tartibotlarga, uning mafkuraviy tirgagi bo’lgan cherkovga, ilm-fandagi sxolastikaga qarshi turdi, tabiiy fanlarni chuqur o’rganish, texnikani rivojlantirish kabi vazifalarni dolzarb deb bildi,

¹ Белинский В. Г. Полн. собр. сочн. М., 1955 . 204 б.

ijtimoiy sohada “aqlga muvofiq jamiyat” qurish maqsadini qo’ygan. Ma’rifatchilik bunga faqat ma’rifat yoyish (jumladan, ularning bir qismi “ma’rifatli monarx” g’oyasiga tayangan), tashviqot-targ’ibot orqali erishish mumkin, deb hisobladi. Ma’rifatchilik ijtimoiy ongning keyingi rivojiga jiddiy ta’sir ko’rsatdi, jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san’atda tub burilishlar yasadi. Yevropada ma’rifatchilik g’oyalari ta’sirida yangicha estetik prinsiplarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida “dunyoni va insonni o’zgartirishga qodir g’oyaviy adabiyot kerak”, degan aqida yotadi.

“Ma’rifatchilik adabiyotda, avvalo, o’quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko’rdi, uni konkret maqsadga erishish vositalaridan biri deb bildi. Ma’rifatchilik maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar beruvchi san’at turlari va janrlarga ayricha ahamiyat berildi. Ma’rifatchilikning Didro, Lessing kabi yirik namoyondalari teatr san’atiga, dramaturgiyaga bag’ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratishgan. Ma’rifatchilik adabiyotida badiiy proza, ayniqsa hayotni atroflicha badiiy tahlil etish va yaxlit badiiy konsepsiyani ifodalash imkonini beruvchi roman janri gurkirab rivoj topdi”², - deb yozadi taniqli adabiyotshunos olim Izzat Sulton.

“Epistoliar roman” (O.Goldsmit, “Dunyo falsafasi”, Sh.Monteskoning ”Fors xatlari”), “Tarbiya romani” (Russo. “Yuliya yoki Eloiza”), “Falsafiy qissa” (Didro.) kabi qator yangi janrlar ishlab chiqildi, inson xarakterini yaratishning yangi-yangi imkoniyatlari kashf etildi, yangi usul, vositalari joriy qilindi.

Yevropa feodalizmining taqdiri XVIII asrda Fransiyada yuz bergan burjua inqilobi natijasida uzul-kesil hal etiladi. Yevropaning boshqa mamlakatlarida, jumladan Germaniyada ham feodalizmga qarshi qaratilgan harakat burjua tarixida boshlanayotgan yangi davr ta’siridan darak berar edi.

² Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T . 1980. 74- bet

XVIII asrda Yevropada taraqqiyparvar kuchlarning chirigan o'rta asrchilik tarbtiblariga qarshi kurashi siyosiy tus ola boshlagani kabi, adabiyotda ham bu kurash jangovor ma'rifatchilik ruhini namoyon eta boshladi.

O'zining antifeodal mohiyati bilan ajralib turadigan ma'rifatchilik adabiyoti feodalizmga qarshi kurashyotgan, hali u vaqtda progressiv ruhda bo'lgan va xalq harakatidan foydalanayotgan burjuaziyaning falsafiy va siyosiy ta'limoti bilan sug'orilgan edi. Bu xususda adabiyotshunos olim E.Xudoyberdiyev quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Ma'rifatparvarlar uchun aql-idrok bosh masaladir. Ular insonning aqliy faoliyatida, odamiylik fazilatlariga yuqori baho berganlar, insonga begona bo'lgan zulmni, jaholatni qoralaganlar, shu bilan birga, ular ma'rifatchilik g'oyasiga, uning ta'sir etuvchi kuchiga ortiqcha baho berib katta xatoga yo'l qo'yдилarki, natijada bunday qarash ularning davlat boshida o'qimishli, odil, yangi ma'rifatparvar mustabid hokim turishi kerak degan, degan xom hayollarga berilishlariga sabab bo'ldi”³

Ma'rifatchilik adabiyotining estetik qarashlari shu bilan qadrli ediki, ular san'atning tarbiyaviy ahamiyatini jamiyatni qayta qurish manfaatlariga xizmat qildirdilar. XVIII asr yozuvchilari ma'rifatchilik ruhidagi siyosiy-falsafiy roman, falsafiy povest, siyosiy-axloqiy xarakterdagi dramatik asarlar yaratdilar.

Ma'rifatparvar yozuvchilar adabiyotni tug'ilib kelayotgan yangi sinfnig g'oyaviy kurash quroli deb bildilar. Ularning ijobiy qahramonlari fuqarolik jasorati, mehnat va tashabbuskorlik ko'rsatish, shuningdek sahovat g'oyasini bo'rttirib tasvirlashdan iborat edi. Bu adabiyotdagi masalaga muayyan maylga berilib qarash o'sha tarixiy davr talablariga, dunyoni qayta qurish uchun qilinayotgan qarashlarga mos bo'lib tushar edi.

Ma'rifatchilik harakati G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir tarzda, inqilobiy va izchil shaklda ko'rinmasada, lekin taraqqiyparvar adadiyot uchun mushtarak tomoni borki, bu uning antifeodal xarakterida namoyon bo'ladi.

Ma'rifatchilik adabiyotining Angliyadagi yirik namoyondalari romannavis yozuvchilar Daniel Defo, Jonatan Svift, Semuel Richardson, Genri Filding, xalqchil shoir Robert Berns va boshqalar hisoblanadi.

Fransiyada ma'rifatchilik harakati Fransua Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo, Per Ogyusten Bomarshe kabi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-adabiy faoliyati bilan mashhur bo'lgan san'atkorlarni yetishtirdi.

Nemis ma'rifatchiligi esa Gotxold Efraym Lessing, Fridrix Shiller, Iogan Volfrang Gyote singari buyuk adabiyotshunos olimlarni, dramaturglarni va jamoat arboblarni maydonga chiqardi.

1.2 Lirika janrining o'ziga xos xususiyatlari

Lirika- badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. She'riyatda voqe'lik lirik subyekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi. Uning uchun badiiy nutq obyekt emas, subyekt birlamchi. Lirikaning badiiy xususiyatlari qadimdayoq ta'kidlab o'tilgan. Jumladan, poeziyani tanqid deb bilgan Aflotun poeziyaning bu turi "to'laligicha shoirning aytganlaridan iborat", desa, Arastu fikricha, poeziyaning bu turida "Taqlid qiluvchi qiyofasini o'zgattirmagan holda" taqlidni amalga oshiradi. Nemis faylasufi Gegel she'riyatning turga xos xususiyati sifatida unda obyekt va subyektning bitta shaxsda uyg'unlashishi, she'riy asar uchun muallifning o'zi, uning ichki olami mavzu bo'lib qolishini ko'rsatadi. Shunga ko'ra "She'riyatning tasvir predmeti –his-tuyg'u, kechinma bo'lib qoladi. Ya'ni, epos va dramadan farqli o'laroq, she'riyat voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik subyekt ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir"⁴. Shu bois ham she'riy asarda voqe'lik lirik qahramon qalb prizmasi orqali ifodalanadi. Hatto lirik asarda subyekt yaqqol ko'zga ko'rinmay unda biron- bir narsa tavsiflangan yoki tasvirlangan hollar (manzara she'rlar, voqeaband she'rlar)da ham u asosiy emas, asosiysi – shu tavsif yoki tasvir zamiridagi lirik subyekt uning kechinmalaridir.

Adabiy turlarning biri- she'riyatga mansub asarlarning sarta'sirligini ta'min etadigan va uni tavsiflaydigan eng muhim xususiyati ijobiy ma'nodagi subyektivligidir. Lirik asarda dunyo ijodkorning ichki dunyosi orqaligina o'z ifodasini topadi. Yozuvchining ichki dunyosi har bir adabiy asarda hal etuvchi rol o'ynaydi. Chunki, dunyoning voqe'likning badiiy adabiyotdagi in'ikosi oddiy in'ikos emas, balki yozuvchining ichki dunyosida "pishib yetilgan" manzaradir. Epik asarda bu dunyoning tasviri ob'ektivlik qobig'iga burkansa, dramatik turda bu ob'ektivlik alohida bir o'tkirlik va shiddat kasb etsa, she'riyatda muallifning shaxsiy kechinmalari tusini oladi. Shuning uchun she'riyat shoirni o'quvchi bilan sirdosh qilib qo'yadi. Sirdoshlik esa o'ta yaqinlik demakdir. Taniqli rus adabiyotshunosi V.G. Belinskiy qayd etganidek, "She'riyatda

shoirning shaxsiyati birinchi o'rinda namoyon bo'ladi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz. Ammo she'riyatdagi sub'ektivlik ijodkorning birgina o'z shaxsiy fikr va hislari bilan cheklanib qolishini bildirmaydi. Adabiyot insonshunoslik, yozuvchi esa o'z zamonasining faol fuqarosi, vijdoni va hakami ekan, uning asarlarida faqat umumxalq, ko'pchilik uchun muhim xarakterli hodisa va kechinmalar aks etsagina keng kitobxonlar "qulog'iga kirishi" va qalbidan joy olishi mumkin. Shu sababli she'riyat oldiga qo'yiladigan zaruriy talablardan biri - mazmunning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishidir. Bu lirika ijtimoiy va axloqiy mavzular bilangina cheklanib qolishi kerak yoki mumkin, degan so'z emas. Insonga nimaiki taalluqli bo'lsa, uning xushnudligi, orzu va alamlarini nimaiki ifoda eta olsa, shularning hammasi lirikaning mazmunidir"³

Lirik asar mazmuni ikki jihatdan muqarrar ravishda avtobiografik xarakterga ega.

Birinchiidan, lirik asarga shoirning o'z boshidan kechirgan biror voqea, uning shunchaki xayoliga kelgan biror muhim fikr, yoki uni shaxsan larzaga solgan biror his mazmun bera olishi mumkin.

Ikkinchiidan, shoir o'zining boshidan o'tmagan biror voqeani, yoki o'zi shaxsan kechirmagan biror hisni tasvir etganda ham u voqea va hislarni o'zi ko'rgan, bilgan, sezgandek his etmasa, o'sha holatga o'zini sola bilmasa, uning tasviri rostlik, hayotiylik kasb etmaydi, o'quvchiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

Shunday qilib, poetik asarda muallif va hislari tasvirlanayotgan shaxs orasida birlik yuzaga keladi. Ayni chog'da bunday asarning yuqorida aytilgan ma'noda avtobiografik xarakterga ega ekanini ham rad etish mumkin emas. Bu hol so'nggi yillarda adabiyotshunoslikda yangi bir atamaning maydonga kelishiga sabab bo'ldi, ya'ni shu orqali "lirik qahramon" atamasi iste'molga kirdi. Lirik qahramon - lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi shoirning

umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir.³

Shoirning avtobiografiyasiga taalluqli bo'lgan fikr va hislaridan jamiyat uchun eng zarurlarini in'ikosi ettirish vazifasi lirikaning mazmuni va shaklidagi ba'zi bir o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi.

Lirikada har qanday his va fikrlar emas, balki Navoiy terminalogiyasi bilan aytganda “xos hol” va “xos ma'no” o'z in'ikosini topadi. Lirik asarda ifoda etilgan har qanday holat inson hayotida uchraydi, ammo o'zidagi dramatism kechinmaning g'oyat darajada yorqinligi bilan ajralib turadi. “Kecha kelgumdir debon ...” g'azalida tasvir etilgan holat ana shunday “xos hol” namunasidir. “Xos ma'no”- oddiy, siyqa, ahamiyati kam fikr emas, balki chuqur va salmoqdor mazmundir.

Lirik asarda ko'pincha insonning xuddi shu tobda boshidan kechirayotgan oniy holati o'z aksini topgani uchun, lirik janr qisqalikka intiladi. O'zbek klassik adabiyotida eng ko'p tarqalgan lirik janr – g'azal hajmi klassik adabiyot qoidalariga muvofiq 7-9 baytdan oshmaydi. Boshqa bir mashhur janr – ruboiy esa ikki baytdan tashqariga chiqmaydi. Sharq va G'arb poeziyasida hatto ikki-uch misradan iborat lirik asarlar uchraydi. Maqsud Shayxzodaning fikricha, lirik janrning (masalan, g'azalning) hajm jihatidan cheklanganligi asarning ijodiy muvaffaqiyatini ta'min etuvchi shartlardan biridir. Kichik hajm ezmalikka yo'l qo'ymaydi va shu orqali asarning “harorati” pasayishga ulgurmaydi.

“Xos hol” yoki “xos ma'no” ni ta'sirli qilib ifodalash zaruriyati lirik asarlarning she'riy shaklda yozilishini taqozo etadi. Shunga ko'ra, she'riy shakl, asosan lirikaning shaklidir. She'rga xos bir qancha xususiyatlar (ritmik jihatdan uyushganlik, so'zlarning ohangdorligi, ya'ni qofiya va hokazo) lirik asarning ajralmas xosiyatlaridir.

“Proza va drama asarlarida ham muallifning shaxsiyati birinchi o'ringa chiqqan holatlar bo'lishi mumkin. Bu endi “lirika” emas, balki “lirizm” deb

ataladi. Lirizm – muallif bayonining ohang va ruh jihatidan lirikaga yaqinligi demakdir. Hatto butun-butun prozaik asarlar lirik ruh bilan sugʻorilgan boʻlishi mumkin. Bunday asarlar “lirik proza” deb yuritiladi. Lirik prozada muallif xuddi shoir kabi oʻz tilidan hikoya qiladi.”Lirik drama” termini esa, asar qahramonlari munosabatlarida mavjud hissiy holatlarga alohida urgʻu berilganini koʻrsatadi”⁴, - deb yozadi adabiyotshunos olim, prof.I.Sulton.

Belinskiyning fikricha, lirizmsiz sanʼat asari boʻlishi mumkin emas. Lirizm sanʼat asarining badiiy kuchini taʼmin etuvchi boshqa xosiyat - samimiyatligining tashqi koʻrinishidir. Lirizm qadimdan beri folklor va yozuv adabiyotining xususiyatlaridan biridir. Qahramonlik dostonlarida shoirning oddiy prozaik bayondan sheʼrga koʻchishi, qahramonlarning monolog va dialoglarini sheʼriy tarzda berilishi ana shu lirizmning koʻrinishidir.

Jahon adabiyoti tarixida sheʼriy shakl ustunlik qilgan davrlar boʻldi.

Lirik asarda syujet boʻlmaydi, degan keng tarqalgan fikr bor. Bu notoʻgʻri fikrdir. Lirik asar mikro (eng kichik) asardir. Shu sababli undagi syujet va konflikt koʻzga tashlanavermaydi. Aslida lirik asarda ham oʻziga xos qonunlarga asoslangan syujet va konflikt mavjud. Lirik asarda syujet ifoda etilmoqchi boʻlgan badiiy gʻoyaning rivoji tarzida maydonga keladi. “Kecha kelgumdir debon ...” sheʼrini diqqat bilan oʻqigan odam ularda asarning boshida badiiy gʻoya tayyor holda berilmasdan, bir muammo tariqasida oʻrtaga tashlanganligini va asarning oxirida shu muammoning yechimi berilganligini payqab olishi mumkin. Navoiy hayot lazzatlaridan unumli foydalanishga chaqiradi.

Lirik asardagi konflikt koʻzga yana ham qiyinroq tashlanadi. Ammo har bir lirik asarda qoʻyilgan muammoning yechimigacha boʻlgan kechinmalar, aslida lirikada konfliktning oʻziga xos shakl va rivojida namoyon boʻlishidadir.

Lirikaning baʼzi janrlari (masalan, ballada va masal) da syujet va konflikt xuddi kichik hikoyadagidek seziladi.

⁴ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T. 1980. 102-bet

Lirikada syujet va konfliktning o'ziga xosligi lirikaning bosh xususiyati bilan bog'liqdir. Badiiy to'qima butun adabiyotning quroli bo'lgani kabi, lirik turda o'zining umumlashtiruvchi, emotsional rolini o'ynaydi. O'zbek klassik poeziyasida g'azal janrida son-sanoqsiz asarlar yaratilgan, lekin ularning ko'pchiligi avtobiografik asosga ega emas, balki shoirlar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlab olingan mavzuning "ishlanishi" natijasida yuzaga kelgan.

Yuqorida aytilganlardan shoir ijodining qimmatini uning sof shaxsiy kechinmalari tasviri bilan emas, balki zamonasining ijtimoiy jihatdan muhim hodisalarini o'zining shaxsiy tarjimai holi faktiga aylantira olishi bilan belgilanadi, degan xulosa kelib chiqadi.

Lirik tur epik turning ba'zi xususiyatlarini ham qamrab olganda lirik epik janrlar maydonga keladi. Odatda, lirikaning namunasi hisoblanadigan "masal" va "ballada" aslida lirik epik janrga kiritilishi lozim. Chunki masalda biror voqea ramzli ravishda ("hayvonlar hayotidan lavhalar" tariqasida) hikoya qilinib, "qissadan hissa" chiqariladi.

Masal odatda hayotdagi salbiy hodisalarni, salbiy xarakterlarni tasvirlaydi. Ballada kichik she'riy lavhada muayyan voqeani tasvirlaydi va unga muallifning munosabatini ifoda qiladi, ammo u "jiddiy ruhda" yozilishi ijobiy hodisalarni yoritishi, ramzli ifoda o'rniga bevosita hayotiy hodisalar tasviriga murojaat etishi bilan masaldan ajralib turadi. Epik va lirik xususiyatlarning birlashuvi natijasida poema janri yuzaga keladi. Poema aslida epik asardir, ammo she'riy shaklda yozilishi uni ayni mahalda lirikaga ham mansub etadi. Poemaning she'riy shaklda yozilishi uni ayni mahalda lirikaga ham mansub bo'ladi. Poemaning she'riy shaklda yozilishi faqat formal moment emas, balki uning mazmunini, o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi. Poemada epos va dramadan farqli o'laroq, lirizm alohida bir kuch kasb etadi.

Xuddi epik yoki grammatik asardagidek, poemada ham hayotning ancha keng va tugallangan manzarasi beriladi, kishilarning ancha murakkab munosabatlari va kechinmalari ma'lum darajada obyektivlik bilan tasvirlanadi,

ammo poemaning o'zini alohida intonatsiyasi (so'zlashuv ohangi) borki, buni adabiyotshunoslikda ba'zan "janr pafosi" deb ataydilar. Poemada muallifning voqealarga aralashuvi va o'z munosabatini izhor etishi alohida o'rin tutadi. Poemadagi bunday parchalar "lirik chekinishlar" deb yuritiladi. Poemadagi lirik turning muhim xususiyati hissiy tafakkur, ya'ni olam va odam haqida hayajonli fikrlash epik manzaraga alohida bo'yoq beradi.

1.3 Aleksandr Poup – noyob poetik mahorat sohibi

Har bir millatning o'tkir iste'dodga ega bo'lgan ulug' bir yuksaklikka erisha olgan, hamda xalq og'zaki ijodiga tayangan holda ijod qilib, millatning ma'naviy xazinasini boyitishga o'z hissasini qo'shgan buyuk yozuvchilari tarixdan bizga ma'lum.

XVIII asr ingliz she'riyati haqida so'z yuritilganda Aleksandr Poup nomi benihoyat hurmat bilan tilga olinadi. U o'zining she'rlari, esseylari, ocherk va tanqidiy asarlari bilan mashhur bo'lgan ingliz shoiridir.

Aleksandr 1688 yil 21 mayda Londonda dunyoga keldi. Buyuk adib, satirik, esseist, tanqidchi, iste'dodli shoir o'zining beg'ubor yoshlik yillarini Vindzor o'rmoni yaqinidagi Binfield qishlog'ida o'tkazgan. U o'n ikki yoshida og'ir kasallikka chalinadi va oqibatda bukri bo'lib qoladi. Ammo uning adabiyotga bo'lgan iste'dodi va atrofidagi do'stlarining mehri, qo'llab quvvatlashlari uni ijod qilishga undar edi. Bu esa uning sog'ligidagi nuqsonlarini unutishga yordam berardi. Shoirning umrining oxirigicha yonida bo'lgan eng sodiq do'sti Marta Blontdir. 12 yoshli Aleksandr Poup yozuv stoli yonida mashhur shoir Draydenning suratiga tikilib o'tirardi. Oradan yillar o'tib janob Poup buyuk ingliz shoirlari qatorida Draydenning izdoshi sifatida olqishlandi. Poupning otasi ruhoniy edi. Shuning uchun o'g'lini bilim olish uchun na maktabga, na oliy o'quv dargohiga yubormadi. Hatto xorijga borishiga ham ruxsat bermadi. U bilimga chanqoq bo'lganligi sababli, uyida xususiy yollangan o'qituvchidan ta'lim ola boshladi. U 1698 va 1699 yillar davomida Tayford maktabiga qatnadi. Undan keyin esa Londondagi ikkita diniy maktabda tahsil oldi. Jismoniy majruhligi uni boshqa faoliyatlardan mahrum qiladi. Uning otasi kabi katolik diniga mansubligi dunyoviy bilimlarni o'rganishiga to'siq bo'lar edi. U 15 yoshlarida ilk she'rini yozadi. Poup "Tanqidiy ocherk" (1711), "Qulfnig buzilisih" (1712) va "Vindzor o'rmoni" (1713) kabi asarlari bilan adabiyot ixlosmandlari orasida muvaffaqiyat qozondi.

Poup 25 yoshga kirmasdan, mashhur shoir sifatida taniladi. Aleksandr Poup tomonidan 1713- yilda Gomerning “Iliada” asarining ingliz tiliga tarjima qilinishi katta milliy voqea sifatida qabul qilindi. O’sha davrning har bir ziyoli kishisi sakkiz jilddan iborat bo’lgan tarjimani mukammallashtirishda hamfikr bo’lishdi. “Iliada” tarjimasi 1715 va 1720 yillar davomida chop etildi. “Odissey” asarining A. Poup tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimasi ham adabiyot sohasida katta yutuq bo’ldi. Keyingi o’n yilda Poup Gomer tarjimasini tugatishi bilan, Shekspir pye’salarini tahlil qilishga ko’p mehnat sarfladi.

Poupning Gomer asarlari tarjimasi katta mahorat bilan amalga oshirilgan bo’lib, Greklarning go’zal xarakteri uni shoirona harakat qilishga undagan edi. Agar tarjima Gomeriga muvofiq ravishda chiqmaganda, hozirga qadar sevib o’qilmagan bo’lard.

Poup “Gomer” tarjimasidek mashaqqatli, qiyin vazifani tugatgandan keyin, u yana bir she’riy yo’nalish --- satirik va didaktik qofiyali she’riyatni o’z zimmasiga oladi.

Poup asarlari ingliz klassik an’alarining eng muvaffaqiyatli asarlari bo’lib, ma’naviyatning ilk pog’onalari tegrishlidir. U odamlarni zakovatli qilish, ularni oqibat va ezgulik amriga ko’ra o’zgartirish o’z she’riyatining vazifasi, deya tan oladi.

Uning o’zgaras nuqtai nazari shunda ediki, u etik va estetik qadriyatlarining chin tarafdori edi. Aleksandr Poup satirik sifatida ham mashhur adiblardan biridir. U o’z jamiyatdagi illatlarni keskin qoralaydi.

Poup she’riyatining g’aroyib va mukammalligi shunda ediki, u she’riyat va siyosatdagi dushmanlariga nisbatan achchiq kinoya bilan hujum qilishi uni jamiyatda yengib bo’lmas shaxs hamda yuksak mavqega erishishiga sabab bo’ldi.

“Gomer”ning she’riy tarjimasi, ”Shekspir tanqidi” (1725) uni klassik maktab izdoshlari izidan borib, yaxshi asar yoza olishini namoyon qildi va o’zining ilk “Tanqidiy esselar” (1711) asari bilan tanqidchi sifatida shuhrat

qozondi. Uning fikricha, tanqidchining ma'suliyati yozuvchilikiga qaraganda ancha kattaroqdir.

She'riyatning qoidalari qisqa va tushunarli edi. Poup bu talablarni qat'iylik bilan qabul qilardi. Bu qoidalarga bo'ysunishi uning nafaqat she'riy mahorati, balki yuqori hayotiy tajribasidan ham dalolat berardi. Aynan shu xususiyatlar o'z navbatida Poup va boshqa yetakchi ma'rifatchilik davri namoyondalari orzu qilgan narsalarning maqsadga muvofiq tarzda o'zgarishining kafolati bo'lib xizmat qilardi. Poup ishonardiki, uning davri islohotlar va bilimda hech qaysi davrdagiga o'xshamagan o'sish davri edi. U yozuvchi va olimlarning dunyoni bilimsizlik zulmatidan asrab qolganligiga ishonar edi. Buyuk ingliz olimi Nyuton yaratgan fizik qonunlarni o'rganish har tomonlama mukamallik sari yo'l ochdi, deb hisoblar edi u.

Shoirning optimistik falsafasi uning "Essey on Man" (1733) ("Inson haqida esse") asarida to'liqligicha aks etgan. Bu asar ingliz adabiyoti tarixida eng qimmatli falsafiy asar hisoblanadi. Undagi hikmatli so'zlarga haqiqiy ma'naviy ozuqa, deb ta'rif bersak mubolag'a bo'lmaydi. Poupning aytgan har bir so'zida inson taqdirida tarbiyaning qay darajada muhim o'rin tutishi, ma'naviy qashshoq insonning jamiyat hayotida qanchalik xavfliligi, uning boshqalarga salbiy ta'siri yaqqol ifodasini topgan. Biz quyida uning mana shunday fikrlaridan namuna keltiramiz:

The learner is happy nature to explore,
The fool is happy that he knows no more;
The rich is happy in the plenty given,
The poor is contension with the care of Heaven;
Dono --- tabiat sirlarini ochganida baxtiyor ,
Nodon esa gumrohligidan baxtiyor.
Boy davlat topganida baxtiyor,
G'arib esa ollohning panohidan baxtiyor.

Be silent always when you doubt your sense

Ikkilanganda sukut saqla.

To error is human, to forgive divine.

Adashish insonga xos, kechirish esa Oллоhga.

A musement is the happiness of those who can not think.

Vaqtichog'lik o'ylovsiz kishining baxti.

Hope travels through, nor quits us when we die.

Tiriklikda umid doim hamrohimizdir.

Shoirning o'z davrining siyosati, axloqi va she'riyatiga munosabati uning satiralari va "Dunsiada" she'ri orqali mohirona tasvirlangan. O'zi yashayotgan jamiyatining illatlari ustidan zaharxanda kinoyalar hech qaysi shoirda A. Poupning "Qulfning buzilishi" ("The Rape of the Lock") (1711) asaridagidek aniq va ravshan tasvirlanmagan. "Doktor Arbusnotga qasida" ("Epistel to Doctor Arbuthnot") ko'pincha "Satiraga prolog" ("Prologue to the satira") deb boshqa nomda yuritiladigan asari jiddiy mavzularni qamrab olgan. Bunda Qirolicha Anna satirik va siyosiy asarlar muallifiga yuzlanadi:

A man's true merit tis not hard to find;

But each man's secret standard in his mind,

That casting weight pride adds to emptiness,

This, Who can gratufy? For who can guess?

The bard whompilfer'd pastorals renown,

Who turns a Persian tale for half a crown,

Just writes to make his barrenness appear,

And strains, from hard - bound brains, eight lines a year;

Qasida Poupning adabiyot va jamiyat borasidagi qarashlarini tushuntirib berishi bilan betakrordir. Shoirning "Doktor Arbusnotga qasida" asari bir necha qismlardan iborat bo'lib, ular turli xil vaqtlarda yaratilgan, lekin mohirona tarzda bir butun holga keltirilgan.

Shoir bu asarida o'zi haqida "... oqibat va ezgulik uchun jaf o chekkan va butunlay do'stu dushmanlar bilan o'rab olingan", deb aytadi.

Aleksandr Poupning mashhur asarlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

"Diniy va dunyoviy she'rlar" (1709), "Tanqidiy esse" (1711), "Qulfnng buzilishi" (1712), "Winzdor o'rmoni" (1713), "Iliada" tarjimasi" (1715-1720), "Turmushdan keyingi uch soat va boshqalar" (1717), " Baxtsiz xonim xotirasiga elegiya" (1717), "Olti tomlik Shekspir asarlari" tarjimasi (1723-1725), " Odissey" tarjimasi (1725-1728). "Insonga qasida " poemasi falsafiy asar bo'lib, 1732 va 1734 yillar mobaynida nashr etilgan.

1.4 Robert Berns -- erksevar shoir, millat va Vatan kuychisi

Robert Berns shotland xalqining buyuk shoiridir.U XVIII asr ingliz adabiyotida alohida o'rin tutadi.

Berns Shotlandiyaning Allouey qishlog'ida kambag'al dehqon oilasida tug'lidi. U yoshligidan og'ir mehnat, adolatsizlik, muhtojlik alamlarini tortadi. Yer egalarning shafqatsizligi, amaldorlarning oddiy xalq ustidan kulishi, ruhoniylarning munofiqligini bo'lajak shoir juda erta payqagan edi.

Yoshlik chog'laridan boshlab Berns xalq qo'shiqlariga maftun bo'ladi. Onasi uzun kechalarda shotland xalq qo'shiqlarini aytib, uning qalbida oddiy xalq hayotiga bitmas-tuganmas mehr muhabbat uyg'otadi, ular bolaning diqqatini o'ziga rom qilib, afsonaviy tuyg'ular sari yetaklaydi. Bo'lajak shoir eshitgan qo'shiqlarini butun vujudi bilan diliga singdirib, she'rga solar va keyinchalik omoch bilan yer haydayotib, ularni qo'shiq qilib kuylar edi.

Berns 16-17 yoshlarida she'riyat sirlarini bekamu ko'st egallashga kirishdi. U bo'sh vaqtlarida tinmay mutolaa qilar, fransuz, nemis, italyan shoir va yozuvchilarining ijodini o'rganar edi

Chinakam xalq shoiri bo'lib yetishgan Berns o'sha xalq uchun yozdi, uning umid va intilishlarini kuylardi.Sherlari orqali xalqqa haqiqatni bayon qilish uning uchun eng muhim vazifa bo'lib qoldi.

“Xushchaqchaq gadolar” poemasining qahramonlari bo'lmish “xushchaqchaq gadolar” ayanchli va qashshoq hayotga qasdma –qasd ravishda o'zlarini quvnoq tutadilar.Qovoqxonada to'plangan soldatlar, daydi va o'g'rilar qo'shig'ida o'sha zamon shotland hayotining real manzarasi gavdalanadi.

Robert Bernsning satirik poemasi “Ikki it ” teran ijtimoiy mazmunga ega. Shoir o'z zamonasini hajv ostiga olar ekan, u majozdan foydalanadi.

Voqea ikkita to'rt oyoqli jonivorning “dilkash” suhbatini bilan boshlanadi.Bulardan biri yirik amaldorning iti ---Sesar bo'lsa ikkinchisi oddiy dehqon iti – Lyuatdir. Har ikkala it suhbatda o'zlarining xo'jayinlarining ahvoli, yashash sharoitlari haqida hikoya qiladi. Agar amaldorlar rohat-farog'atda

maishat qilsalar, dehqonlar esa og'ir qashshoqlikda, qo'l uchida hayot kechiradilar.

Berns Sezar hamda Lyuat tilidan gapirib, lordlarning kambag'allar mehnati bilan yaratilgan noz-ne'matlarni ko'kka sovurishlarini qoralaydi. Asar kinoyaviy yakun topadi. To'rt oyoqli suhbatdoshlar inson haqida gaplashib, bir-birlarini odam emas, it ekanliklari bilan muborakbod etadi:

**Quloqlarin har yona silkib,
Dumlarini do'stona selpib
Xayrlashdi:
--Biz baxtli ekanmiz
Odam bo'lib yaralmaganmiz.**

Asarda shu tariqa to'rt oyoqli jonivorlar odamlardan ko'ra aqlliroq, adolatliroq, insoniyroq degan achchiq kinoyaviy motiv ilgari suriladi. Bu o'sha davr jamiyati adolatsiz, bema'ni tuzilgan degan fikrga olib keladi. Robert Berns ijodining chinakam xalqchilligi ham ana shu keskin ijtimoiy satirada yaqqol namoyon bo'ladi.

Robert Bernsning ko'plab she'rlari boshqa tillar qatori o'zbek tiliga ham tarjima qilingan va qilinmoqda. Ularni o'qib, o'zbek kitobxonlari ham Robert Berns ijodidan bahramand bo'lishadi. Biz quyida uning "Farzandimga" she'rining tarjimasini keltiramiz:

**Muhabbatim buyuk tuhfasi
Mendan ayro tug'ilgan qizcham.
Mayli ortsin elning shubhasi,
Men otangman mitti yulduzcham.
Baxtli damlarimning guvohi,
Qalb ardog'im, o'saver shodon.
Kechir meni bo'lsa gunohim,
Lek, otangni o'ylama nodon.**

**Sevgim uchun kurashdim, toldim,
Iltijolar qoldi besamar.
“Yalang oyoq” nomini oldim,
Ishq o’rniga so’radilar zar.
Bobong dedi viqor-la kulib,
“Qiz bermayman sendek gadoga”.
Shundan beri kuylarim mungli.
Yolvorurman yolg’iz xudoga.
Olov yoshligimdan esdalik,
Jigargo’sham, qalb qonim o’zing.
Onang edi parichexraddek,
Sen farishtam, bor shonim o’zing.
Niholginam ko’kka bo’y cho’zib,
Intilaver iliq oftobga.
Suyganingla birga ahd tuzib,
Borish nasb etsin mexrobga.
O’shanda men shodlikdan masrur,
Senga baxtlar tilayman, qizim.
Bir baxtiyor otadek mag’rur
Mehrob sari eltaman o’zim.**

Robert Bernsning ko’pgina asarlari xalq og’zaki ijodi xazinalaridan, uning boy afsonaviy arsenalaridan olingan.

Shoirning mana shunday asarlaridan biri “Tem O’ Shenter” poemasidir. Berns unda cherkov safsatalariga qarshi chiqib, insonning sog’lom hayot quvonchlarini diniy taassurotlardan ustun qo’yadi.

Tem o’z qo’shnisi etikdo’z Jon bilan mayxonada ko’p aroq ichadi.to’satdan momaqalriroq bo’lib, yomg’ir yog’adi.Tem qorong’u, zimiston bo’lishiga qaramasdan, otiga minib, uyi tomon yo’l oladi.Zimistonni chaqmoq ovozi, momaqaldiraq shu’lasi buzib turardi. Tem esa ot choptirib, xalq orasida yomon

joy nomini olgan turli joylardan o'tib borar ekan, botqoqlikka cho'kkan savdogar, qoya yonida boshi uzilgan sayoq aroqxo'r, tiriklay ko'milgan bola jasadi topilgan ovloq joy, qovjirab qolgan daraxtga osilgan ayol jasadi Temning ko'zi oldidan birin-ketin o'tardi. Nihoyat, ins-jinslar, shaytonlar, nopok kuchlar makoni hisoblangan Allouey cherkovi ko'rinadi. Tem O'Shenter cherkov darvozasi tomon buriladi. Bu yerda jodugar va firibgar yalmog'izlar to'planib, bazmu-jamshid qurmoqda edi. Kuy qo'shiqlar, raqs va bazm ayni avjida. To'satdan bir necha qabr ochilib, ulardan har xil skeletlar chiqadi. Ular o'g'ri, ablah bosqinchilarning arvohi bo'lib, qo'llarida bolta, pichoq, o'tkir tig'lar ushlab olganlar. Tem qirchang'i oti Meginni qamchilaydi. Ularni ortidan shaytonlar quvlaydilar va nihoyat shaytonlar Tem otining dumini yulib olib qoladilar. Tem bir amallab dumsiz otida uyiga yetib keladi.

Shaytonlar bazmi qahramonning mastlik fantaziyasi, alahsirashi sifatida tasvirlangan. Asarda nopok kuchlar --- shayton va iblislar kulgili tarzda masxaralab ko'rsatilgan. Berns shu orqali cherkovning shayton va iblislar bilan oddiy dehqonlarni cho'chitishi ustidan zaharxandalik bilan kulgan. Jodugarlar bazmiga kirib qolgan Tem O'shenter qo'rquvdan esini yo'qotib qo'yishi o'rniga, o'zini dadil tutadi. Hatto bir yosh, chiroyli jodugar bilan hazillashishga ham jur'at qiladi.

Berns hajviyotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u insonning har qanday nopok kuchlar ustidan g'olib chiqishiga qaratilgan.

Robert Bernsning ajoyib asarlaridan biri "Jon arpa doni" nomli balladasi ham xalq og'zaki ijodining mevasidir. Ballada xalq qo'shiqlari motivida yaratilgan. Xalq afsonasida "Jon arpa doni" ----abadiy so'nmas kuch. Uni yo'q qilishga necha-necha hukmdorlar ahd qilsalar ham, Jon Arpa doni – xalq ruhi sifatida yangidan tirilaveradi. Chunki bu obraz xalq matonati namunasidir. "Jon arpa doni" tabiatning abadiy barhayotligi, xalq erki va yengilmasligining ramzi hisoblanadi.

Robert Bernsning xalq og'zaki ijodiga murojaat qilishi asarlariga jo'shqinlik, soddalik, xalqchilik, umidvorlik va yumor hissini bag'ishlaydi. Shoirning har bir

asarida xalq poeziyasining ruhiyati sezilib turadi. Janrlarning aralash kelishi, misralarning erkin joylashuvi --- bularning barchasi Berns ijodiga xalq folklorining samarali ta'siridan darak beradi.

Robert Berns ijodi o'z vataniga cheksiz muhabbat, uning kelajagi va ozodligiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan va uning asarlari o'zining xalqchilligi bilan jahon adabiyoti xazinasini boyitdi. Soddalik, tabiatga yaqinlik, erksevarlik va isyonkorlik Robert Bernsni XVIII asr shoirlari orasidan oldinga olib chiqdi.

Robert Byorns qo'shiqlari bilan emas, avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. Uning she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yoziladiganga o'xshab tuyuladi. Ammo unga o'xshatib yozishni har kim ham uddalay olmaydi. Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarini ohanrabodek o'z og'ushiga tortib oladi. U o'z ona yurti Shotlandiyadan bir umr burchdor ekanligini his qilib yashadi va bu tuyg'u uning she'rlarida chuqur aks etdi. NT“ a`nanaviy musiqa ohangidan olinib hosil qilingan.

Byornsning uslubi kutilmagan ichki tug`yon, mavhumlik, samimiyat, so`zlarni noziklik ila bir maromda safga tiza olish, o`ziga xos yumor kabi hislatlardan iborat edi. Byorns she`riyati xuddi shotland shahar ana`nasi kabi mumtoz, diniy ingliz adabiyoti bilan yaqin munosabatda bo`lgan va rivojlangan. Byorns faqat shotland tilida yozishda emas, balki shuningdek ingliz tilining shotland-ingliz shevasida ham mahoratli edi. Uning “Love and Liberty” (Sevgi va Ozodlik) , shuningdek “The Jolly Beggars” nomli asarlari bunga misol bo`la oladi.

Ma'lumki, xalq qo'shiqlaridan ko'pincha g'am ufurib turadi. Zero, dono xalq g'amni tuymagan odam quvonch nimaligini tushunmasligini yaxshi biladi. Xuddi shu kabi Robert Byorns she'rlarida ham qayg'u ko'pga o'xshab ko'rinadi. Lekin, aslida, uning zamirida hamisha hayotbaxsh quvonch yotgan bo'ladi. Shuning uchun ham Byornsning she'rlari asrlar osha yashab, she'riyat ixlosmandlariga ma'naviy oziq bermoqda.

Robert Byornsning xalq og'zaki ijodiga murojaat qilishi asarlariga jo'shqinlik, soddalik, xalqchilik, umidvorlik va yumor hissini bag'ishlaydi. Shoirning har bir asarida xalq poeziyasining ruhiyati sezilib turadi. Janrlarning aralash kelishi, misralarning erkin joylashuvi – bularning barchasi Byorns ijodiga xalq folklorining samarali ta'siridan darak beradi.

Byorns atoqli lirik shoir edi. Uning ba'zi sherlari yoqimli va ta'sirli, ba'zilari esa kulgu va kinoyaga boy. Byorns hayoti davomida drama yozishni xohlardi, ammo buning uddasidan chiqa olmadi. Xatto biz uning she'rlari bilan tanishganimizda unda ko'plab qahramonlar ishtirok etganiga guvoh bo'lamiz va bexosdan shunday dramaturgni boy berganimizni anglaymiz. Uning bir qator she'rlari, jumladan "Qip - qizil atirgul" ("A Red , Red Rose"), "Shotlandlar siz kimsiz?" ("Scots Wha Hae"), "Kuhna zamin qo'shig'i" ("Auld Lang Syne"), "Jon arpa doni" ("John Barleycon"), "Qalbim mening tog'larda" ("My heart in the highlands") xalq og'zaki ijodi namunasida yozilgan bo'lib, qo'shiqqa aylanib va butun dunyo bo'ylab sevib kuylanadi.

She'rlarida Byorns haqiqiy sevgi, do'stlik har qanday mayllardan ustun bo'lishini ta'kidlab o'tadi. Ularning ko'plarida shoir tabiat go'zalligini ta'riflaydi. She'riy to'rtliklarida va boshqa ijod mahsullarida erkni kuylovchi qasidanavis sifatida namoyon bo'ladi.

Shotlandiya o'z mustaqilligini yo'qotgach. Millat siyosiy-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy jihatdan ilgarilab ketgan inglizlarga tobe bo'lib qoldi. Shotlandiyani inglizlashtirish, millatni ma'nau mahv etish, yurt boyliklarini tashib ketish avj oldi. Bu hol millatning ziyoli farzandlarini bezovta qilmasligi mumkin emasdi. Lekin ayrim kishilarning urinishi samara bermasligi ham oydin edi. Shu bois, millatni uyg'otish, uni tarixiy hodisalarni kuzatuvchisidan qatnashchisiga aylantirish kerak edi. O'zligini anglagan millat ilg'orlari hayot- mamot jangiga kirishdilar. Adabiyot bu jangda eng qudratli qurol edi. Shu vaqtga qadar badiiy adabiyot ijtimoiy hayot bilan bu qadar baqamti kelmagan, chatishib ketmagan, hayotning tashvishlariga aralashmagan edi. Jamiyat o'zgarishi bilan adabiyot ham o'zgarishga yuz tutdi.

Tarixga “ma’rifatchilik” nomi bilan kirgan harakat paydo bo’ldi. Uning oqibati o’laroq yangi adabiyot yuzaga keldi.

Demak, adabiyot jamiyat tarixi bilan yonma-yon yashaydi. Tarix kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi. Badiiy adabiyot esa xalqning turli davrlardagi ruhiyatini muayyan inson taqdiri misolida kashf etadi. Badiiy asarlar inson kechinmalari bilan bog’liq. Ularda shodlik va qayg’u, baxt va kulfat, iftixor va afsus, kuyinchaklik va loqaydlik kabi xilma-xil tuyg’ular tasvir etiladi. Shuning uchun ham inson adabiyotga befarq, loqayd qaray olmaydi. Undan o’z ma’naviyatini boyitish uchun foydalanadi.

Robert Berns ijodi XIX asr yozuvchilaridan V.Skot, J.Bayron, Jon Kitslarga katta ta’sir ko’rsatdi. Uning otashin she’rlari o’zbek kitobxonlariga ham yaxshi tanish. Taniqli o’zbek shoiri Muhammad Ali Robert Byornsning “Qo’shiq va balladalar” to’plamini o’zbek tiliga tarjima qildi va to’plam 1971 yil nashr etildi. Iqtidorli tarjimon BegoyimXolbekova shoirning bir qator she’r va balladalarini o’zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi va ularni “Yor ko’nglining qiroliman” nomli to’plamga jamlab o’quvchilarga havola qildi.

I Bob yuzasidan xulosa

I bobda XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida lirika mavzusi o'sha davrda yashab ijod etgan shoirlar A.Poup, R.Berns ijodi namunasida o'rganib chiqildi.

Ma'rifatchilik adabiyotda, avvalo, o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ham ma'rifatchilik adabiyoti namunalarida ko'pincha qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi.

Lirika, ya'ni she'riyat uyg'onish davri va klassizm an'analarini davom ettirgan holda, ma'rifatchilik g'oyalari bilan sug'orilgan ko'plab yangi asarlar bilan boyidi. Bu borada shotland xalqining buyuk farzandi erksevar, xalqparvar otashin shoir Robert Berns go'zal lirik she'rlar, shuningdek jamiyatdagi illatlarni keskin qoralovchi tanqidiy asarlari bilan mashhur bo'lgan shoirlar Aleksandr Pop, O.Goldsmittlarning xizmatlari beqiyos bo'ldi.

XVIII asr ingliz she'riyatidagi buyuk xizmatlari uchun Aleksandr Poup nomi ingliz adabiyotida benihoyat hurmat bilan tilga olinadi. U o'zining she'rlari, esseylari, ocherk va tanqidiy asarlari bilan mashhur bo'lgan ingliz shoiridir. Uning o'zgarmas nuqtai nazari shunda ediki, u etik va estetik qadriyatlarning chin tarafdori edi. U satirik sifatida ham mashhur adiblardan biridir. U jamiyatdagi illatlarni keskin qoralaydi. Pop she'riyatining g'aroyib va mukammalligi shunda ediki, she'riyat va siyosatdagi dushmanlariga nisbatan achchiq kinoya bilan hujum qilishi uni jamiyatda yengib bo'lmas shaxs hamda yuksak mavqega erishishiga sabab bo'ldi.

Robert Berns ijodi o'z vataniga cheksiz muhabbat, uning kelajagi va ozodligiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan va uning asarlari o'zining xalqchilligi bilan jahon adabiyoti xazinasini boyitdi. Soddalik, tabiatga yaqinlik, erksevarlik va isyonkorlik Robert Bernsni XVIII asr shoirlari orasidan oldinga olib chiqdi.

II BOB. XVIII asr ma'rifatchilik davri adabiyotida drama janrining o'rni va ahamiyati

2.1 Drama spetsifikasining muhim jihatlari

Teatr sahnasida qo'yish uchun yozilgan adabiy asarlarning barchasi adabiyotning uch asosiy turidan biri bo'lgan dramatik turni yoki qisqa qilib aytganda dramani tashkil etadi.

Drama (yun. drama-harakat) – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. Dramaning tasvir predmeti - harakat, Arastuning tarificha, "u barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan faoliyatidagi kishilar sifatida taqdim etadi". Drama obyektning plastik obrazini yaratadi, unda – subyekt – ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi. Drama adabiyotga ham, teatr san'atiga ham birdek ta'lluqli, uni o'qib ham qabul qilish mumkin. Ayni chog'da u teatr asari –spektaklning asosi. Boshdanoq sahnaga mo'ljallab yozilishi dramatik asarning qurilishi, poyetik o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim omilidir.

Dramatik asarning potensial imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqishi uchun u sahnada yoki ekranda muttasil qo'yib borilishi kerak. Ammo dramatik asarning sahnada qo'yilishi yoki ekranga ko'chirishga mo'ljallanganligi uning o'qilmasligini, o'qishga yaramasligini ko'rsatmaydi. Shekspir, Molyer, Hamza kabi mashhur dramaturglar ijodiy merosining faqat teatrlar arxivida qolib ketmasdan, million kishilarning shaxsiy kutubxonalarida faxrli o'rin olgani hozirgi davrda nashr etilayotgan kinossenariy to'plamlarining omma orasida borgan sari kengroq tarqalishi dramatik asarlarning o'qilishining yaqqol dalilidir.

Drama adabiy ijodning materiali – tildan foydalanadi va adabiy ijodning umum qonunlari asosida yaratiladi. Shu sababli u o'zining "onasi" --- adabiyotning qonuniy farzandidir.

Ayni chog'da drama turi boshqa adabiy turlardan imtiyozi bilan ajralib turadi. Dramatik turga mansub asar o'zining adabiyotga mansubligini yo'qotmagan holda sahna va ekranda ikkinchi marotaba tug'ilib yashaydi. Hayotning va adabiy estetik o'zlashtirishning murakkabligi shunda ham ko'rinadiki, dramatik

asarning sahna va ekranda ikkinchi marotaba tug'ulib, ikkinchi hayot kasb etishi ma'lum darajada uning ham o'qilishiga sabab bo'ladi, dramatik asarni sahna yoki ekranda ko'rgan oddiy tomoshabin uni yana o'qishga zaruriyat sezmaydi. Faqat yuqori madaniyatli tomoshabingina teatr sahnasi yoki ekranda ko'rgan asarining adabiy asosi bilan yanada tanishib, katta estetik va ma'rifiy ahamiyatga ega ekanini biladi. Bu proza va poeziya asarlarining qayta-qayta o'qilishidek tabiiy bir hodisadir.

Drama xuddi butun adabiyotdek hayotning taqozosi bilan tug'iladi. Gegel adabiyotning ilk marotaba tug'ilishining sabablari, uning hayotiy zamini haqida shunday yozgan edi :”Poeziya inson o'zini ifoda etishga kirishgan paytda boshlangan, poeziyada aytilgan gap faqat aytib yuborilgan bo'lishi uchun yashaydi, agar inson hatto o'z amaliy ishlari va tashvishlaridan xalos bo'lmagan holda ham birdaniga nazariy diqqatini bir joyga yig'ib, o'zini idrok etishga tushsa, darhol poeziyaga o'xshash bir ifoda yuzaga keladi”⁵. Sodda qilib aytganda, inson o'z dardini, yuragini iztirobga solgan fikr va hislarni izhor eta boshlagandan adabiyot tug'iladi.

Tarixda inqilobiy davrlar o'ziga xos dinamik kuchga ega bo'lib, u insonlar hayotida iz qoldirgan hamma katta voqealarda ham u yoki bu darajada tadbiiq etilishi mumkin. Shunday tarixiy voqealar Esxil, Sofokl, Shekspir, Kornell, Shiller, Pushkin, Hamza kabi mashhur yozuvchilar dramatik ijodining mazmunini tashkil etishi tasodifiy emas. Bunday tarixiy davrlar materialida ko'pincha dramaning tipik va mukammal shakli bo'lgan tragediya yaratilishi ham bejiz emas. Chunki bunday davrlarning eng yaxshi kishilari sarguzashtida insoniyat uchun eng ko'p saboq bor. “Faqat oliy tabiiyatli inson tragediyaning qahramoni yoki qurboni bo'la oladi, chunki voqe'likning o'zida ahvol shunday”⁶.

Hayot go'yo bir azim daryo. U doimo harakatda. Ammo du daryoning shiddatli va sekinroq oqadigan paytlari bilan birga, sokinliklari ham bor. Epos shu

⁵ Gegel. Estetika . st.357.

⁶ V.G. Beliniskiy. Tanlangan asarlar.

azim daryoni butun ko'lamini va salobati bilan qamrab olishga harakat etadi, lirika esa sokin damlarga nazar tashlaydi. Uning tez oqar, eng nishab joylari dramaning tasvir predmetidir. Inson shu "nishab joylar"ni tasvir etish orqali dramada o'z aksini topguvchi butun bir hayotiy manzaragagina emas, balki dramaning qahramoni qilib tanlab olingan ayrim odam tasviriga ham taa'lluqlidir. Dramaning bu xususiyati L.Tolstoy tomonidan juda yaxshi tasvirlab berilgandir. Uning fikricha, drama bizga odamning butun hayotini hikoya qilib berish o'rniga shu odamni shunday vaziyatga qo'yishi kerakki, shunday bir tugun bog'lamog'i kerakki, bu tugunni yechish paytida odam butunicha ro'yobga chiqsin. L.Tolstoy aytgan "vaziyat" va "tugun" esa doimo inson hayoti oqimining eng shiddatli paytlariga to'g'ri keladi. Xuddi shunday "vaziyat" va "tugun"lar mavjudligida insonning faol ruhiy hayot bilan yashaydi, voqealar girdobida javlon uradi, ehtirosalar olamida yonadi, chiniqadi.

Dramaning qudratli hayotiy asoslaridan yana biri -- insonning hayotdan olgan o'z ta'ssurot va saboqlarini boshqalarga ko'rsatmali usulda berishga intilishidir. Aristotel aytadiki, ko'rish orqali olingan taassurot eng boy, eng kuchli va eng chuqur taassurotdir. Buni insoniyat ilk hayotidayoq sezgan. Shu sababli, masalan, hali san'at taraqqiy etmagan qabilachilik davrida hayotiy tajriba (ov ovlash dushmanga qarshi kurashning eng samarali usullari, o'lja va g'alabaning shavq-zavqi) raqs orqali ifoda etilgan. Qo'g'irchoq o'yini (hozirgi zamon terminalogiyasi bilan aytganda qo'g'irchoq teatri) yana o'sha hayotiy tajribani ko'rsatmali usulda, harakat va so'z orqali ifoda etish zarurati insonning sarguzshlari tasvirlanadi. Deyarli hamma xalqlarda mavjud bu "tomosha" ana shu "ko'rsatish orqali tajriba almashtirishning" natijasidir. Lekin baribir qo'g'irchoq odamning o'rnini bosa olmaydi. Natijada, sahnaga insonning o'zi chiqdi. Masxaraboz, lo'ttiboz, askiyachi xalq va millatning hayotiy tajribasini jonli tashuvchilar bo'lib, "sahna"da ko'rinadilar. Bunday "tajriba almashtirish"ning bir afzalligi bor. U ham maktab, ham "tomosha"dir. Prinsipial jihatdan olganda, hozirgi zamon teatri bilan eng

qadimgi raqslar, pantomima, qo'g'irchoq o'yini va askiyabozlik orasida farq yo'q, ular hammasi insonning hayotiy tajribasini "ko'rsatish orqali" ifoda etishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'yadilar va bir-birlaridan badiiy vositalarning mukammalligi, boyligi bilan farq qiladi.

Ana shu "tomosha" ehtiyoji ham insonning tabiiy va abadiy ehtiyojlaridan biri sifatida dramaning hayotiy asoslaridan bo'lib qoladi. "Drama" so'zi aslida "harakat" yoki to'g'rirog'i "harakat bilan ko'rsatiladigan narsa" tomosha demakdir.

Inson psixologiyasidagi yana bir xususiyat ham dramaning rivojida hayotiy asos sifatida katta rol o'ynaydi. Bu, odamning go'zallikka intilishi va shu intilishning bir ko'rinishi o'laroq, har sohada hunar va mukammallik ko'rsatishga ehtiyoj sezishidir. Drama ham tug'ilishi bilanoq insonning o'z qobiliyatini namoyish ettiradigan va mukammallashtiradigan bir maydon bo'lib qoladi. Dramaning beshigi rolini o'ynagan mamlakatlardan qadimgi Yunonistonda dramaturglarning o'ziga xos tanlovi odat tusiga kirgan edi. Har bir katta bayram va tantana chog'ida bir necha muallif (masalan, Esxil bilan Sofokl) asarlari sahnaga qo'yilar va ulardan qay biri ortiqroq mahorat ko'rsatsa, o'shanisi mukofotlovchi tomonidan qayd qilinardi. Shunisi ham muhimki, bir musobaqa davomida o'ynaladigan asarlar avvaldan hammaga ma'lum syujet asosida yozilgan (Shoh Edip kabi).

Butun qadim yunon dramaturgiyasining bir necha mashhur syujetni takrorlashdan iboratligi --- bugungi o'quvchi va tomoshabinni ajablantiradigan fakt --- yunon tomoshabiniga sira erish va g'alati tuyulmas edi. Hali dramaturgiya o'z zamonasining materialiga keng murojaat etishga o'rganmagan chog'da san'at shinavandalari uchun syujetning yangi bo'lishining ahamiyati yo'q, aksincha, dramaturg va aktyorlar namoyish etgan mahoratgina diqqat markazida tutilardi. Bu hol Shekspirgacha davom etadi.

Ijodi sermahsul bo'lgan Shekspirning bir qancha dramatik asarlari o'zidan avval o'tgan va zamondosh dramaturglar tomonidan qayta-qayta ishlangan

syujetlar asosida yozilgandir. Bu hol zamondosh tomoshabinlar oldida Shekspirning obro'yini tushirmagan, aksincha o'zining ajoyib mahorati tufayli Shekspir ular va kelajak avlod nazarida buyuk ijodkor bo'lib qolavergan. Shekspirning bu qahramonligida uning "o'zini ko'rsatish" tilagi katta rol o'ynaganini Gegelning quyidagi so'zlaridan ham anglash mumkin: "Haqiqiy san'atkor o'zi sevgan hamma narsani va o'z ko'z oldiga keltirgan hamma narsani darrov shakllantirishga tabiiy mayl va bevosita ehtiyoj sezadi⁷". Shu sababli, masalan, Shekspirni olsak "rivoyatlar, qadimiy balladalar, novellalar, xronikalar unda bu materialga shakl berish va umuman shu materialda o'zini ko'rsatishga o'zida qattiq ehtiyoj qo'zg'atadi".

Insonning tabiiy ma'naviy ehtiyojlaridan biri bo'lgan "o'zini ko'rsatishni"ning ijobiy roli o'tmish bilangina cheklanmaydi. Mashhur syujetlarni ishlash traditsiyasi har bir yangi zamonning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, Shekspir, Kornel, Rasinlarning davridan keyin ham davom etdi va hozirda ham ma'lum darajada davom etmoqda.

"O'zini ko'rsatish" istagi dramaturgiyada boshqa sohalardan ko'ra ortiqroq rol o'ynaydi, bir kishiga bir necha jihatdan "o'zini ko'rsatish"ga imkon beradi. Shu sababli, bu sohaning vakillari goh dramaturg, goh artist, goh rejissyor sifatida o'zlarini ko'rsatishadi (Shekspir, Molier, Hamza, Uyg'ur, kabi arboblarning teatr tarixidagi ikki yoqlama rolini, kino san'atida M.Romm va Sh.Abbosov kabi arboblarning ham rejissyor, ham dramaturg sifatida faoliyatini esga olish lozim).

Bugungi ijodiy hayotda bir necha kishining bir vaqtda bir syujet asosida asar yozishi deyarli uchramaydi, ammo "o'zini ko'rsatish" tilagi bari bir o'z ijobiy rolini o'ynayveradi. "O'zini ko'rsatish aslida insonning o'zini o'zi ham mukammallashtirish tilagidir, inson tirik ekan, bu tilak sira yo'qolmaydi".

Dramaning tarixiy asosi, ya'ni qaysi aniq ijtimoiy sharoitda tug'ilishi va rivoj topishi masalasiga kelsak, Beliniskiy tomonidan aniqlangan bir qonuniyat

⁷ Gegel. Estetika. T.I. st.296

hamma xalqlar hayotida ham o'z tasdig'ini topadi, deyish mumkin. San'at o'ziga xos va normal sharoitda rivoj topgan xalqlar tarixida avval epos, keyin lirika, va eng so'nggida drama paydo bo'ladi. Har holda --- dramaning rivoj topishi uchun xalqning jamiyat sifatida rivojlanishining ancha yuqori darajasi mavjud bo'lishi zarur. "Lirik poeziyaning boshqa turlardan oldin o'tganligi haqida tarixiy ma'noda, Jan Pol Rixter bilan kelishib bo'lmaydi --- deb yozgan edi Belinskiy. --- Biz uchun grek san'ati o'rnak, forma, yuqori obro' bo'lishi kerak, chunki jahonda hech bir xalqning san'ati grek san'ati kabi o'ziga xos va normal ravishda o'sgan emas. Qadimgi grek hayotining to'la to'kisligi ko'proq san'atda ifodalangan. Shuning uchun grek san'atining taraqqiyot aktlari biz uchun ma'qul obro' kuchiga ega bo'lishi kerak. Ularda lirik dramadan oldin paydo bo'lgani kabi, epopeya ham lirikadan oldin yaralgan, san'at taraqqiyotining bunday yo'li aqlga ham muvofiqdir, bolalik chog'ini kechirib turgan xalq uchun tabiatga va hayotga, o'zicha mavjud bo'lgan tabiat va hayot deb ob'ektiv qarash va fikrni o'tmish haqidagi afsona deb bilish ichki mushohadadan va mustaqil ong kabi fikrdan oldin o'tishi kerak. Biroq bundan hamma xalqlarda san'at taraqqiyoti bir xilda izchillik bilan borishi kerak, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shuni ham unutmaslik kerakki, greklar hayotining butun to'laligi ko'proq san'atda ifodalangan, ularning milliy tarixi, asosan san'at taraqqiyoti tarixidir, boshqa xalqlarda san'at hayotning yordamchi element, ikkinchi darajadagi manfaat hisoblanib, ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga bo'ysundirilgandir. Masalan, yahudiylarning diniy poeziyasi asosan faqat lirikadir, ya'ni sof lirik poeziya, yoki epik lirika, yoki lirik dogmatic poeziyadir. Xalq bo'lib emas, balki qabila bo'lib cho'llarda tarqoq holda yashagan, jamoatchilikka yot bo'lgan arablarda esa faqat lirika yoki lirik-epik poeziya mavjud edi, lekin dramatik poeziya ularda hech vaqt bo'lgan emas va bo'lishi ham mumkin emasdi⁸". "Dramatik poeziya madaniyati yetuk xalqda,

⁸ Белинский В.Г. Пол. Собр. Соч. стр.139

uning tarixiy taraqqiyoti ko'rkam gullagan davrda paydo bo'ladi⁹ ” degan ilmiy xulosa o'zbek xalqi tarixi misolida ham o'z tasdig'ini topadi.

Yuqorida drama sahnaga qo'yish (yoki ekranlashtirish) uchun yozilgan adabiy asarning yig'indisi deyildi. Bu ta'rif nuqtai nazar batafsilroq ifodalanganda quyidagicha shakl oladi: “Adabiyotning turlaridan hech biri san'atning boshqa turlari bilan dramachalik tutashib ketmaydi, --- deb yozadi M.S.Kuginyan. Drama aslini olganda, adabiyotning bir turigina emas, u allaqachon adabiyotning chegarasidan chiqib ketgan bir hodisadir va uning tahlili endi adabiyot nazariyasidagina emas, teatr nazariyasi asosida ham amalga oshirilishi mumkin”. M.S.Kuginyan¹⁰ shunday qo'shimcha qiladi: “Dramatik obzarlarni sahnada o'zlarining uzil – kesil ifodasini topadilar”.

Bu yuqoridagi ta'rifda dramatik turning asosiy alomati, spetsifik xususiyati deb, uning ijro(sahnaga qo'yish)ga mo'ljallanganligi qayd etiladi.

Dramaning asosiy spetsifik alomati buning unda hayotning oddiy tilda “dramatik holat” deb ataladigan paytni aks ettirilishidir, deb hisoblash ham xatodir. Dramatik holat faqat drama asarining fazilati emas. Har qanday san'at va adabiyot asarining asosida hayotiy dramatic situatsiya yotadi. Biror dramatik asar yo'qki, uning mazmunida dramatik situatsiya yotmagan bo'lsa.

Shakliy jihatdan olganda, dramaning hamma elementlari epos va lirikada, shu jumladan lirik-epik janrlarda mavjuddir. Bir qarashda dramaning o'ziga xos hech xususiyati yo'qdek ko'rinadi. Aslida esa bunday emas. Negaki, o'ziga xos vazifa, vosita va shakllarga ega bo'lmagan san'at turi yashashga haqli emas.

Har bir adabiy turning spetsifikasini tayin etadigan bosh alomat bo'ladi. Bu alomat shu turga kiruvchi har bir janrda ham saqlanadi va ayni choqda shu janrga xos xususiyatlar bilan boyiydi.

Dramatik asar boshdanoq ayrim shaxs(o'quvchi)ni emas, butun bir tomosha zaliga yig'ilgan kishilarni larzaga solishga, shu ommani zavqlantirishga, muallifning hamfikriga aylantirishga mo'ljallangan. Odamlar “kollektiv” bo'lib

⁹ Белинский В.Г. Пол. Собр. Соч. стр.201

¹⁰ Кугинян М.С. «О Специфике драмы» М.; 2000. 80 -bet

o'qigandagina, ya'ni maxsus ravishda bir joyga yig'ilib, "tomosha qilish"ga shaylanib o'tirgandagina drama asaridan kutilgan effekt (ta'sir) va natija to'la hosil bo'lishii mumkin. Dramatik asar ommaning hoziru-nozir bo'lishiga mo'ljallab yoziladi va shuni talab etadi.

Dramaning spetsifikasi haqida adabiyotshunoslikda mavjud yuqorida aytilgan ta'rifni yanada to'ldiradigan bo'lsak, dramatik turning ijroga mo'ljallanganligi qayd etiladiyu, dramatik turning taqdirini hal etuvchi "uch burchak" --- yozuvchi, teatr, tomoshabinning uchinchi qirrasini (ya'ni tomoshabin)ning roli alohida ko'rsatilmaydi. Dramatik turning tug'ilishi va yashashida tomoshabinning juda ham katta, hal etuvchi roli bor. Buni nazarda tutmaslik, dramatik turning spetsifikasi haqidagi tasavvurning doimo to'la bo'lmasligiga, unga biryoqlama yondashishga olib keladi.

Dramaning hayotiy asosi haqida gapirilganda, odamlarda jamiyatning hayotiy tajribasini eshitib emas, balki ko'rib o'zlashtirish ehtiyoji dramaning tug'ilishiga sabab bo'lganligini biz bilgan edik. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, shu talabgajavoban yaratilgan dramatic asarning yashash-yashamaslik masalasini ham tomoshabinlar, ya'ni omma hal qiladi. Tomosha zalini larzaga sola olmagan, unda qattiq emotsiyalar uyg'otolmagan asar dramatic shakl deb nomolgan shaklda yozilgan bo'lsa ham, qisqa muddat ichida, ya'ni darrov "o'ladi", tomoshabin spektaklga kelmay qolgani uchun u sahnadan tushib qoladi, shu bilan bu asarning dramatik tur "vakili" sifatidagi roli va o'rnini tamom bo'ladi. Sahnadan tushib qolgan asar esa, agar uning boshqa adabiy fazilatlari mavjud bo'lsa oddiy adabiyot asari sifatida yashashda davom etishi mumkin, ammo drama oddiy adabiyot emas, u oddiylikni "ko'tarmaydi", shu sababli dramati turning talablariga javob bera olmaydigan asarlar uning "eligidan o'tmaydi", bunday asarlarni drama tezgina o'z qatoridan chiqarib qo'yadi. Shunisi ham borki, drama "imtihonidan o'ta olmaydigan" asar oddiy adabiyotda ham arziyasiz bo'lib qoladi.

Dramaning sintetik tur ekani haqida soʻz yuritilganda spektaklning adabiy – dramatik asarda asarga qoʻshimcha qilinadigan rejissyor talqini, aktyor oʻyini, rassom bezagi, kompozitor musiqasi kabi sifatleri emas, dramaning adabiy tur sifatida boshqa adabiy turlardan oladigan “ulushi” koʻzda tutiladi.

Drama eposning asosiy xususiyatini “qiyomat qarz” qilib oladi. Xuddi eposda boʻlganidek, dramaning predmeti – hayotdir. Unda koʻp qirrali hayotning hamma va har xil hodisalari koʻrsatiladi. Eposdan hayotni butun toʻlaligi va chuqurligi bilan inʼekos ettirish talab etilar ekan, bu talablar butun koʻlami va oʻtkirliigi bilan drama oldida ham turadi. Dramaning diqqati “hayot darsining nishab joylari”ga qaratilar ekan, bu drama hayotning mohiyatini uning qonuniyatlarini toʻgʻri va toʻla ochib bera olmaydi, degan soʻz emas. Shekspir, Molyer, Ostrovskiy, Tolstoy, Chexov, Gorkiy va Hamzaning dramatic ijodida hayot keng koʻlami va chuqurligi bilan tasvir etiladi. Bu yerda Belinskiyning ajoyib soʻzlarini esga olmay iloj yoʻq: “Shekspir -- dramaning gomeridir. U oʻz dramalarida hayotning va poeziyaning hamma elementlari mazmunan cheksiz, badiiiy forma jihatidan buyuk boʻlgan jonli bir birlik yasagan. Ularda kishilik dunyosining hamma hozirgi holi, uning hamma oʻtmishi, uning hamma kelajagi ifodalangan. Ular butun xalqlardagi, hamma zamonlardagi sanʼat taraqqiyotining koʻrkam guli, hashamatli mevasidir ...”¹¹.

Xuddi epos kabi hayotni butun koʻlami chuqurligi bilan qamrab oluvchi dramatic tur eposning dramatic hodisalarga eʼtibor berishdek xususiyatini ham oʻzlashtiradi.

Shunday qilib, drama eposdan ham epizm (hayotning keng, obʼektiv manzarasini berish), ham dramatism kabi komponentlarni oladi.

Lirik turning tajribasi dramaga ham toʻla toʻkis ravishda kiradi. Belinskiyning taʼrificha, lirizm muallifning asarda tasvir etilayotgan hayotiy hodisaga shaxsiy, samimiy hayajonli munosabatidir. Bunday munosabat lirikada juda ham yaqqol koʻrinadi. Hayotiy hodisa muallifning hissi shakliga

¹¹ Белинский В.Г. Пол. Собр. Соч. стр.201

kiradi. Ammo lirizm lirikaning afzalligi va bosh alomati bo'lsa ham, faqat lirikaning "mulki" emas.

Lirizm ma'lum me'yorda adabiyotning hamma tur va janrlariga xos xususiyati, hatto har qanday adabiy asarning badiiyligi shartlaridan biridir. Lirizm dramada, dastavval dramaturgning tasvir etilayotgan voqea personajlarga munosabatida, asarning g'oyaviy asosida, uning tendensiyasida namoyon bo'ladi. Tasvir etilayotgan voqea va kishilarga yozuvchi munosabatini ifoda etuvchi bunday lirizm har bir adabiy asarning, shu jumladan, dramatik turga mansub asarning ham qoni va jonidir.

Monolog ham drama tomonidan "qarzga olingan" shakldir. Bir qaraganda, monolog faqat dramaning o'ziga xos, faqat u bilan egizak tug'ilgan shaklga o'xshaydi. Ammo aslida, monolog lirikaning "farzandi"dir. Har bir lirik she'r mohiyat e'tibori bilan shoir monologidir. Monolog prozada ham ancha keng qo'llaniladi. Birinchi shaxs nomidan yozilgan har qanday roman, qissa yoki hikoya aslida monologdir.

Dramada lirizm ham boshqa adabiy turlardagiga nisbatan yanada yuqori ko'tariladi. Dramatik asarning bosh qahramoni voqea emas (eposda bosh qahramon voqea edi) va muallif emas (lirikada bosh qahramon muallif edi), balki shaxsdir. Dramatik asarda nimaiki ifodalanmoqchi bo'lsa, bizning oldimizda harakatlanib turgan, ya'ni o'z oldidagi va o'z ichidagi to'siqlar bilan kurashib, ularni yengib, yoki ulardan yengilib, iztirob chekayotgan, quvonayotgan tantana qilayotgan va boshqalar inson shaxsi orqaligina aks ettiriladi.

Dramatik turda lirizm va epizm o'tkir dramatismga "zarb etiladi". Natijada badiiylilikning uchala komponentining ham qudrati ko'p martaba ortadi.

Dramada hodisalar va kishilarning taqdiri hayotdagidan bir necha ortiq murakkablashtirib, o'tkirlashtirib "og'irlashtirib" tasvir etiladi. Dramaning bu huquqi va xususiyati shunga sabab bo'ladiki, prozaik asarlarni dramatik turga

ko'chirish – sahnalashtirish, yoki ekranlashtirish chog'ida asarga yangi dramatic holatlar qo'shishga to'g'ri keladi.

Dramaning bu xususiyati hayotdagi dramatismni o'tkirlashtirib ko'rsatish --- ayniqsa, uning eng tipik janri bo'lgan tragediyada juda ham yaqqol ko'rinadi. Ma'lumki Shekspirning "Tarixiy xronikalar"ida tasvir etilgan voqealar va shaxslar o'zlarining dramatismi jihatidan aslida tarixdan ma'lum voqealar va shaxslarga juda ham o'xshatganlar. Buyuk dramaturg o'sha voqealardagi shaxslarning psixologiyasi va taqdiridagi dramatismni ko'p marotaba orttirib ko'rsatgan. Bu holni Blinskiy kamchilik emas, balki fazilat, deb hisoblaydi. Blinskiy yozgan edi: "Har bir shaxs tragediyada tarixga emas, tarixiy ism taqqan bo'lsada, shoirga tegishlidir". Gyotening mana bunday mulohazakor so'zlari odilonadir: "Shoir uchun bitta ham tarixiy shaxs yo'q, u o'zining ma'naviy dunyosini ko'rsatmoqchi bo'ladi va bu maqsad uchun ba'zi tarixiy shaxslarni qutlab, ularning nomlarini o'z asarlariga munosib ko'radi". Buyuk tanqidchining fikricha, tragediyachi o'z qahramonini ma'lum tarixiy vaziyatda ko'rsatishni istaydi. Tarix unga vaziyat beradi, bu vaziyatdagi tarixiy qahramon tragediyaning g'oyasiga muvofiq kelmasa, uni o'zicha o'zgartirishga u to'la huquqlidir.

Dramada syujet o'tmish va kelajak voqealarini xuddi shu bugun bolayotganidek ko'z oldimizda namoyon qiladi, bizni shu voqealarning jonli guvohiga aylantirib qo'yadi.

Dramada syujet uchun ayricha tig'izlik va tezlik, shiddatkorlik xarakterlidir."Boy ila xizmatchi"ning birinchi parchasi bunga juda yaxshi misol bo'la oladi. Qisqa bir muddatda bir necha muhim voqeaning guvohi bo'lamiz, ular ba'zan sira kutilmagan holda sodir bo'ladilar (Masalan, hozirgina farzandidan judo bo'lgan Solihboyda Jamilaga muhabbat uyg'onishi kabi)

Shunday shiddatkorlik va tig'izlik Shekspirning "Romeo va Juletta", Gautmanning "Hayot oqshomi" asarlari va umuman har qanday yetuk

dramatic asar uchun xarakterlidir. Dramaning syujetida tomoshabin uchun ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lsa ham, ammo syujetning rivojini tezlatish o'rniga sekinlatadigan bitta ham element bo'lishi mumkin emas. Dramada hamma narsa harakat orqali ifoda etiladi va harakat uchun eng zarur bo'lgan narsalargina unda yashay oladi.

“Romanda ba’zi bir shaxs voqeada chinakam ishtirok etgani bilan emas, balki original xarakterga ega bo’lgani uchun o’rin egallashi mumkin, dramada esa voqeaning borishi va tarqqiyot mexanizmida zarur bo’lmagan bitta ham shaxs bo’lmasligi kerak. Soddalik u qadar murakkab emaslik va harakat birligi dramaning asosiy shartlaridan biri bo’lishi lozim”¹².

Dramada konfliktning roli juda ham kattadir. Ammo dramada konflikt faqat xarakterlari va hayotiy pozitsiyalari jihatidan bir-biriiga zid bo'lgan shaxslarning kurashi shaklidagina yuzaga chiqadi, deb o'ylash noto'g'ridir. Dramada harakat faqat bir butun jismoniy harakat ma'nosida emas, balki dastavval muallif ifoda etgan bosh g'oyaning rivoji tarzida anglashilganidek, konflikt ham bosh qahramon yoki qahramonlarning o'z maqsadlarini amalgam oshirish yo'lida uchragan to'siqlarni yengishi jarayoni kabi keng ma'noda tushunilishi kerak.

Dramada syujetdan va uning muhim qismi bo'lgan konfliktdan talab qilinadigan narsa -- bosh g'oyani aniq ifoda etish, voqeaning to'xtovsiz rivojlanishi va aktyorlar o'ynashi lozim bo'lgan ruhiy holatlarining boyligi, xilma-xilligi mumkin qadar zid ravishda namoyon bo'lishidir. Dramaturg har vaqt esda tutadiki, aktyor so'zni, hodisani emas, ruhiy holatni o'ynaydi va har rolining fazilati uning holatlariga, boyligiga bog'liqdir. Beliniskiy “Butun dunyo shoirlarning podshohi bo'lgan Shekspirning chuqur qalb biluvchiligi” haqida bejiz gapirmagan.

Dramatik turda kopmozitsiyadan juda ham ixchamlik va jipslik talab etiladi. Har bir epizod va ko'rinish avvalgi epizoddan muqarrar suratda kelib

¹² Белинский В.Г. Пол. Собр. Соч. стр.193-194 .

chishi va xuddi shunday muqarrarlik bilan keyingi epizod yoki ko'rinishni tayyorlab berishi shart. Dramada ko'rinishlar va pardalar g'oya bir zanjirning xalqalaridir. Har holda o'z tuguni va yechimiga ega mustaqil parcha shu bilan birga o'zidan avvalgi ba keyingi xalqalarga tirkak bo'ladi, ya'ni bir chekkasi bilan ikkalasining ichida kiradi. Har bir epizodning tugallanganligi ayni paytda o'zidan avvalgi va keyingi epizodlar bilan chambarchas aloqada ekanligi kompozitsiyaning juda ham xarakterli xususiyatidir.

Dramatik turda so'z, dastavval personajlarning o'zlarini o'zlari va birlarini tavsiflovchi vositadir. Shu bilan birga, dramadagi so'z oddiy so'z emas, balki harakat hamdir. Har bir replika (personaj aytgan jumla) personajlar munosabatiga, albatta ozgina bo'lsada o'zgarish kiritadi va muallifning bosh g'oyasining shakllanishini jindak bo'lsada rivojlantiradi."Xalqasimonlik" replikalarning ham xarakterli xususiyatidir. Har bir personajning replicasi undan avval gapirgan personajning replikasi "ichidan" kelib chiqadi va boshqa personajning javob replikasini tug'diradi, unga "ilinib qoladi". Diolog dramada fikriy "qilichbozlikdir", bir personajning zarbasi uning qarshisidagi personajning zarbasiga ham sabab bo'ladi. Personajlar qanchalik hozirjavob bo'lsalar, dramaning ta'siri shunchalik ortadi Shekspirning Gamlet obrazining tez, chuqur va o'tkir javoblari tomoshabinni qoyil qoldirib, ularga huzur bag'ishlaydi.

Drama turining eng muhim talablaridan biri --- soddalikdir. Kishi roman o'qir ekan, unda tushunilmagan so'z ustida o'ylash, uning ma'nosini esga olish yoki lug'atlardan qarab topish imkoniyati bor. Tomoshabin esa bunday imkoniyatga ega emas. Shu sababli sahnada turib aytilgan har bir so'z uning uchun tushunarli bo'lishi shart. "Alisher Navoiy" dramasi bilan "Navoiy" romanini til jihatidan chog'ishtirgan har bir kishi romanda arxaizmlar dramadagidan ko'ra ancha ko'p ekanini darrov payqab oladi. Oybek romanida arxaizmlarning nisbatan mo'lligi tarixiy kolaritni maydonga keltirish uchun zarur narsa. Agar bu fazilat dramaga ko'chirilganda edi, kamchilikka aylangan, ya'ni dramaning tomoshabin tomonidan tushuna olishini qiyinlashtirgan bo'lar

edi. Dramadagi personajlar qaysi tarixiy davr va qaysi aniq milliy sharoitda yashaga bo'lmasi, tomosha zalida o'tirgan kishilarning sodda tiliga juda ham yaqin tilda gaplashmoqlari zarur.

Dramatik turda xarakterlar tasviri, boshqa adabiy tur va janrlardagidan farqli o'laroq, juda ham bo'rttirilgan bo'ladi. Hatto aytish mumkinki, dramada tasvir etilgan xarakterlarda ma'lum darajada bir yoqlamalik bo'lishi muqarrar va bu dramaning kamchiligi emas, fa'zilatidir. Bu bir yoqlamalik dramati turning "qutbi" bo'lgan tragediya va komediya ayricha bir yoqalik bilan ko'rinadi. Otello umuman insonlarga xos bo'lgan rashk hissining juda ham bo'rttirilgan, katta badiiy mubolag'a darajasida ko'tarilgan mujassamidir.

Jahon adabiyotining uzoq tarixida dramatik turning juda ko'p janrlari yuzaga kelgan. Adabiyotshunoslikda ular shartli ravishda uch xilga bo'linadi va bu xillarning har biri janr deb ataladi. Bu janrlar tragediya, drama (tor ma'nodagi drama) va komediyadir.

Hayotiy hodisalarni kishilar estetik jihatdan ikki katta guruhga bo'lib baholaydilar. Bir xil hodisalar o'zlarining mazmuni bilan bizda ulug'vor, olijanob hislar tug'diradilar. Ulug'vor hodisalarda mavjud fojia va dramatism bu voqealarning ishtirokchilariga chuqur achinish va tahsin uyg'otadi. Bu xil go'zal va mahobatlik hayotiy hodisalar va ularga muallif munosabati dramada tragediya deb atalmish janrga material beradi.

Hayotda yana shunday hodisalar borki, ularda ulug'vorlikdan mahrum bo'lib, ularda xunuklik ustun turadi. Bunday hodisalarning mujassami yoki yaratuvchisi bo'lgan kishilar bizda nafarat uyg'otadilar, bu nafrat ko'pincha mana shunday kishilar ustidan kulishimizda o'z ifodasini topadi. Ulug'vorlik -- tragediyaga material bersa, xunuklik -- asosiy quroli kulgu bo'lgan komediyani ro'yobga keltiradi.

Hayotda ulug'vorlik bilan xunuklik doimo yaxlit va bir-biridan uzoq holda yashamaydi. Aksincha, hayot -- yaxshilik bilan yomonlikning, ulug'vorlik bilan bachkanalikning, go'zallik bilan xunuklikning yonma-yon yashashidan

iboratdir. Ammo bu “hamdamlik” hayotning o’zida doim namoyon bo’lavermaydi, ba’zan xufyona, ba’zan yarim pinhon holda yashaydi. Bunday hayotiy holatlar o’zlarining haqqoniy in’ekosi uchun alohida bir shaklni taqozo etadilar. Shu tarzda dramatik turning uchinchi janri --- drama maydonga keladi.

Tragediya kishilarning boshiga tushadigan eng og’ir holatlarni bo’rttirib ko’rsatish yo’li bilan hayot dialektikasining o’zida mavjud dramatism va fojiviylikni yorqin tasvirlashni maqsad qilib qo’yadi. Tragediya inson hayotidagi eng qaltis, eng shiddatli, halokatli holatlarga e’tibor beradi. “Tragediyaning otasi” bo’lgan Esxilning “Forslar” tragediyasi qadimgi yunonlar hayotidagi fojiali hodisalarga bag’ishlangan bo’lsa, boshqa shu kabi tragediyalarda ham tarixning eng qaltis, qarama qarshi kuchlar kurashidagi eng dahshatli paytlari tasvirlangandir. Tragediyada bosh qahramon taqdiri halokat bilan tugashi holati ko’p uchraydi, ammo bu tragediyaning bosh alomati emas. Tragediyaning muhim xususiyati qahramonlarning halokatidan ko’ra, ular taqdirining hayotda kam uchraydigan darajada murakkabligi va mushkulligi, ularning ichki dunyosi bilan tashqi dunyosi orasidagi mavjud nomutanosiblikning halokatli xarakterga egaligidir. Tragediyaning qahramonlari “tarjimai holi” jamiyat va inson, insoniyat va olam, tarixiy sharoit va burch haqidagi eng chuqur falsafiy o’y va xulosalarning fokusi (markazi) bo’lib qoladi. Sofoklning “Shoh Edip” asarida inson intilishlari bilan hayotning ob’ektiv qonunlari orasidagi munosabat tekshiriladi va insonning irodasidan tashqari, hayotning ob’ektiv qonunlari tabiat va jamiyatda hukmron ekanligi haqidagi haqiqat ochib beriladi. “Romeo va Juletta” da Shekspir bu ikki sof qalb bilan hayot va jamiyatda hukmron tushunchalar orasidagi halokatlarga to’la qarama - qarshiliklarni tasvirlab beradi. Ikki oshiq aslida bunday dunyoda yashashga qodir emas, yana ham aniqrog’i , bu dunyo shunday sof qalblarning yashashiga

arzimaydi. Ikki sevguvchi shuning uchun halok bo'ladilarki, "hayotda har bir go'zal hodisa o'z qadr qimmatining qurboni bo'lishi kerak"¹³».

Adabiyotshunoslikda adabiy janrlarning spetsifikasini talqin etishda bir usul bor: dramatik asarning boshida tasvir etilgan hayotiy hodisaning asar oxirida qaysi "tus"ga kirganiga ayricha ahamiyat beriladi. Bu usul juda ham samaralidir, chunki asarning janr xususiyatlari unda, ayniqsa dramatik vaziyatlarning qanday rivojlanishida va qanday yakunlanishida juda ham yaqqol ko'rinadi.

Mana shu usul bilan tragediyaga nazar tashlasak, ko'ramizki tragedik janrda xotima boshda tasvir etilgan vaziyatning tamom yemirilishi, chil-parchin bo'lishidir. Bu yemirilish ko'pincha qahramonlarning jismoniy halokati shaklini oladi.

Tragediyada inson va jamiyat hayotiga oid katta masalalarning muallif va personajlar diqqat markazida turgani sababli tragedik janr asarlarining shakli ham ulug'vorlikka tortadi. Bu, tragediyaning ko'p pardali bo'lishida, fikr va hislarni ko'tarinki ruhda ifoda etishga mos bo'lgan she'riy shaklarda ko'proq yozilishida, presonajlar tilining ham ma'lum darajada ko'tarinki, "kitobiy"ligida ko'rinadi. Monolog --- tragediya uchun eng xarakterli shakldir. Dramatik janrlarning hech birida monolog tragediyadagidek qo'l kelmaydi.

Tragediyani dramatik janrlar orasida eng "sun'iy" deb hisoblash mumkin. Boshqa janrlarda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ba'zi hodisalar (masalan, tarixiy shaxslarni tasvirlashda aniqlik prinsipidan chekinish) tragediyaning zaruriy quroli va bezagidir.

Drama janrining, ya'ni tor ma'nodagi dramaning tasvir ob'ekti butunhayot, uning hamma katta-kichik hodisalari, inson boshidan kechiradigan barcha his va fikrlardir. Dramaga qahramonlik elementlari ham xos bo'lishi mumkin. Ammo dramaning eng muhim xususiyati konfliktning fojiali, halokatli xarakterga ega

¹³ Белинский В.Г. Пол. Собр. Соч. стр.198

emasligi, personajlar taqdirida yuzaga kelgan murakkablikning nisbatan osonlik yoki baxtiyorona hal etilishidir.

Dramaning boshida tasvir etilgan hayotiy voqea asarning oxirida tubdan o'zgarsada, ammo asos e'tibori bilan saqlanadi. Personajlar orasidagi munosabatlar sezilarli darajada boshqacha tus oladi, ko'pincha qarama – qarshi nuqtai nazarlar o'rtasida murosa, sulh paydo bo'ladi, yoki bosh qahramonlar muallif va tomoshabinlar istagan fikriy saviyaga ko'tariladilar.

Komediyaning asosiy quroli kulgi bo'lgani uchun unda dramatik element tragediyadagi kabi rivojlanish va halokat darajasiga ko'tarilishi mumkin emas. Harakat xarakterining hatto dramadagi kabi "jiddiy" bo'lishi ham xavflidir. Aks holda, kulgi yo'qoladi, natijada jiddiy g'oya bachkanalashadi, ta'siri kamayadi va kulgidan kutilgan foydaga erishilmaydi.

Komediya uchun eng xarakterli xususiyat boshqa tasvirlangan hayotiy voqealarning asar oxirida teskari bo'lishidadir.

Komediya kulgi asosiy qurol ekan, uning hamma komponentlaridan tomosha zalida kulgi qo'zg'ata olishi talab etiladi. Bu talab hatto juda kichik detallarda ham o'z kuchida qoladi. Ijobiy qahramonlarning hiylalaridan ayrim so'z o'yinlarigacha – hamma narsa komediya muallif istagan ruhda tomosha zalida kulgi paydo paydo bo'lishiga xizmat qilishi kerak.

Tragediya janrida tasvirlanayotgan shaxslar o'zlarining ma'naviy dunyosi jihatidan tomoshabinlarga nisbatan beqiyos baland turadilar. O'zlarining xarakterlari qudrati maqsad uchun qurbon bo'lishga tayyorligi va o'z psixologiyasi va taqdirining murakkabligiga ko'ra, tragediyaning qahramonlari tomoshabinlardan katta farq qiladi. Tomosha zali tragediyaning qahramonlariga pastdan balandga qaragandek qaraydi. Shu sababli tragediyada tasvirlanayotgan voqealar va shaxslarning taqdiri tomoshabinlarni qattiq larzaga sola oladi. Tragediyaning badiiy ta'siri drama turining boshqa janrlaridan beqiyos kuchlidir.

Dramatik janrda tasvirlangan shaxslar o'z sifatleri jihatidan tomoshabinlarga tanish, yaqin va hatto ularga teng kishilar bo'ladi.

Tomoshabinlar drama janri personajlarini o'zlarining zamondoshlari, safdoshlari va qarindoshlari kabi his qiladilar, hatto ularda o'zlarini o'zlari ko'radilar. Zamonaviy mavzularning ko'proq drama janrida ishlanishi va dramalarning ko'p yozilishiga sabab ham shudir.

Komediya tasvirlangan shaxslar o'zlarining ma'naviy dunyosi jihatidan tomoshabinlardan past turgan kishilar bo'ladilar. Komediyaning markazida ijobiy qahramon turishi va u o'zining ma'naviy ongiga ko'ra tomosha zalida o'tirganlardan bir daraja yuqori bo'lishi ham mumkin. Ammo bu ijobiy qahramonlar komediysning ob'yekti emas, balki tomosha zalining zahiradagi "vakillari"dir va shu sifati bilan ular o'zlari ham asardagi boshqa personajlardan, ya'ni asarning komediya ekanini tayin etuvchi shaxslardan baland turadilar hamda komediyaning asosiy quroli – kulgu ularga nisbatan "ishlamaydi". Komediya har safar bunday ijobiy qahramon bo'lishi shart emas.

Tomoshabinlar komediya illatlari fosh etilayotgan shaxslarga balanddan pastga qaragandek qaraydilar. Har holda spektaklning boshida bo'lmasada, oxirida tomoshabinlarda ana shunday his paydo bo'lishi shart. Shunday his uyg'ota olmagan komediya o'z burchini ado etolmaydi

Uchala dramatik janrning ana shu xususiyati va talablarini hisobga olmagan muallif ijodiy muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Uning yutug'i asarning bizning ruhimizni "tozalay bilishi" darajasiga bog'liqdir. Uchala janr asarlari ham biz tomoshabinlarni u yoki bu tarzda larzaga soladi, hayajonlantirib, bizga zavq-shavq baxsh etadi. Natijada, biz teatrdan qandaydir illatlardan xalos bo'lib, qandaydir fazilatlarni "yuqtirib" yoki shu kabi fazilatlar egasi bo'lishni orzu qilib chiqamiz. Aristotel bu jarayonni "Poetika"da "katarsis" termini bilan ifoda etgan edi. Yunon faylasufi tomonidan tragediyaga nisbatan ishlatilgan bu termin aslida san'atning hamma turlarining kishilar ruhini shakllantirishdagi buyuk rolini ifodalaydi.

Adabiy turlar juda kam va sekin o'zgaradilar. Asrlar davomida ular o'zlarining asosiy alomatlarini saqlaydilar. Bu yerda adabiy shakllarning

mazmunga nisbatan ustuvorligi, doimiyligi va konservatorligi qonuniyati o'z kuchini ko'rsatadi. Shuni ham aytish kerakki, bundan ikki yarim mingcha yil burun Aristotel adabiy turlarning uchta ekanini ta'kidlagan va XIX asrning birinchi yarmida Belinskiy o'zining "Poeziyaning turlarga va xillarga bo'linishi" asarida "poeziyaning hamma turlari va xillari mana shulardir. Ular faqat uchta, bundan ko'p bo'lishi mumkin ham emas" deya yakunlagan va hozirda ham bu buyuk tanqidchining ushbu so'zlarini takrorlash mumkin. Faqat shuni qo'shimcha qilish, yoki "epik tur" termini o'rnida "proza" termini va "lirik tur" termini o'rnida "poeziya" termini ko'proq ishlatiladi.

Adabiyotning har bir turida qadim davrlarda namoyon bo'lgan bosh xususiyatlar hozirgi zamon adabiyotlarida ham asosan saqlanadi. Yana bir masala – adabiyotning turlari va janrlariga xos sifatlarning tarixiyliigi ham juda muhimdir. Har tarixiy davr turlar va janrlarda o'z izini qoldiradi. Masalan, yuqorida aytilganidek, dramatik turning xususiyatlari ma'lum darajada o'zgarib, boyib borgan. Yunon dramasi bosh qahramon inson bo'lib qoladi va buning natijasi o'laroq, unda lirizm elementi kuchayadi.

Yuqorida ko'rganimizdek, harakat birligi, ya'ni bosh g'oyaning asosan yaxlit bir voqea orqali ifoda etilishi dramaning bosh talabidir. Ammo, bu talab hamma davrlarda ham yagona talab bo'lolmagan. Romantik dramadan realistik dramaga esa faqat bosh talab sifatida "harakat birligi" talabi meros bo'lib o'tadi.

2.2 R.B. Sheridan -- o'z davrining atoqli dramaturgi

XVIII asr ingliz dramasi ko'zga ko'ringan vakillari sifatida Addison, Richard Stil, Kolli Sibber, Jorj Lillo, Eduard Mur, Jon Gey hamda Sheridanlarni ko'rsatish mumkin. XVIII asr ingliz sahnasida burjua axloqini targ'ib qiluvchi ("yig'loqi") komediyalar bilan burjua dramasi ("meshchan" dramasi) keng tarqaldi. Bu asarlarning qahromonlari, klassisizm dramasidan farqli o'laroq, oddiy burjua vakillari, savdogarlar, do'kondorlardan iborat. Bu asarlar burjuacha axloq, tartib-intizom, tejamkorlik hamda chapdastlikni maqtashga qaratilgan edi.

Richard Brinli Sheridan ma'rifatchilik dramaturgiyasining yirik satirigi sifatida mashhur. Sheridan Irlandiya poytaxti Dublinda kambag'allashgan zodagon oilasida tug'ilgan. Uning ota-bobolari aktyor, onasi esa o'rtamiyona yozuvchi edi. Sheridan aristokrat yoshlar o'qiydigan maktab Xarrouda o'qib, yuridik ma'lumot oladi. U 22 yoshida 16 yoshli opera qo'shiqchisi go'zal qiz Eliza Linliga uylanadi. Birmuncha vaqt moddiy muhtojlikdan keyin, dramaturg "Raqiblar" (1775), "Duenya" (1775) nomli komediyalarini yozib, moddiy jihatdan ahvolini yaxshilab oladi. Yana besh yil ichida Sheridanning "Avliyo Patrik kuni" (1775), "Skarboroga safar" (1777), "G'iybat maktabi" (1777), "Tanqidchi" (1779) singari komediyalari bosilib chiqadi.

Sheridan Dryuri-Leyn teatrining boshlig'I, aktyor Garrikdan keyin uning direktori bo'ladi. Angliya parlamentiga saylangach, bir necha yil mobaynida siyosiy ish bilan shug'ullanadi. Parlament partiyasi vigilarning safida Sheridan Angliya hukumatining mustamlakachilik siyosatini, uning birinchi fransuz burjua inqilobiga nisbatan tutgan salbiy munosabatini keskin qoraladi. Parlament a'zosi bo'lgan Sheridan mashhur siyosiy notiq sifatida nom chiqaradi.

"G'iybat maktabi" Bu hajviy komediya Sheridan ijodining yuqori cho'qqisi bo'ib, jahon adabiyoti tarixiga dramaturg nomini sira o'chmaydigan qilib kiritdi. Angliya adabiyotida ijtimoiy komediyaning ajoyib namunasi hisoblangan bu asari bilan Sheridan burjua-aristokrat jamiyatiga qaqshatqich zarba berdi.

“G’iybat maktabi”da dramaturg bir yo’la bir necha masalani o’rtaga tashlaydi. Ya’ni burjua-aristokratiyasining ahloqi, oila mojarosi, yuqori doira vakillarining munofiq basharasi singari qator masalalarni mahorat bilan hal qiladi. Londonda yashovchi boy savdogar Ser Piter Tizlining uyi. U endi dehqonchilik bilan shug’ullanmay qo’ygan, ammo hali burjua muhitiga ham to’la aralashmagan. Ser Piter Tizli kambag’allashib qolgan pomeshchik qizi Lediga uylanadi. Ilgari viloyatda yashagan Ledi Tizli London muhitiga kirib, zodagonlar to’dasiga aralashadi. Ulardagi barcha urf-odatlariga taqlid qilib, katta-katta xarajatlar qiladigan bo’ladi, nuqul eri bilan janjallashadi.

Yana Piter Tizl tarbiyalagan aka-uka Jozef va Charlz Serfeslar ham bu oilaga aloqador bo’ladi. Bu aka-ukaning kattasi Jozef aslida samimiy ko’rinsa-da, munofiq, axloqsiz, yolg’onchi, baxil, o’zining qora niyatlarini chiroyli, shirin so’zlar bilan pardalab yuradi. Jozef o’z ukasining sevgan qizi Mariyani yo’ldan urib, unga o’zi uylanmoqchi bo’ladi. Chunki Mariyaning sepi katta edi. Ayni vaqtda, Jozef Ledi Tizlni yo’ldan urishga, uni o’z eriga xiyonat qilishga ham undaydi. Jozef ukasi Charlzga har xil tuhmatlar qilib yuradi. Jozefning bunday munosabatlarini bilmagan Ser Piter Tizl unga katta ixlos bilan qaraydi. Mariyani [uni ham Piter Tizl tarbiyalagan] Jozefga bermoqchi bo’ladi. Sodda chol o’zining barcha oilaviy sirlarini Jozefga aytib yuradi.

Komediyada Ledi Sniruel boshliq bir to’da g’iybatchilar obrazi ham berilgan. Bular: Kriebtri, Ser Benjamen Bekbayt, Kender xonim va boshqalar. Bu g’iybatchilar to’dasiga ularning tajribali ustoz Ledi Sniruel bosh-qosh bo’ladi. Ledi Sniruel salonining g’iybatchilari borni yo’q, yo’qni borga chiqaradilar. Ular ninadek narsani tuyadan ham katta deb ko’rsatishadi. G’iybatchilar Charlzni Ledi Tizl bilan don olishadi, deb gap tarqatadilar. Kambag’allashib qolgan Charlzning halok bo’lishi muqarrar, deb jar soladilar. Akasi Jozef ham g’iybatchilar tomonida turib ukasiga tuhmat yog’diradi, uni ”xotiningiz bilan aloqasi bor”, deb Piter Tizlga yomonlaydi. Komediyaning oxirida Jozefning munofiqligi fosh qilinadi. U o’z uyiga Ledi Tizlni aldab olib kelgan edi. Shu payt bu erga Piter Tizl kelib

qoladi. Jozef Ledi Tizlni parda orqasiga yashirib, uni fransuz ayoli-modistka deb yolg'on gapirsa-da, siri fosh bo'ladi. Ser Piter Tizl o'z xotinini bu yerda ko'rgach, Jozefning iflos basharasini tushinib oladi. Uning xotini ham bu voqiadan keyin o'z qilmishlarini anglaydi, o'zini tutib olgan Ledi Tizl ham Jozefning munofiq kishi ekanligiga ishonch hosil qiladi va g'iybatchilar to'dasidan uzoqlashadi.

Komediya uzoq Hindistondan kelgan ser Oliver Serfes bilan bog'liq yana bir tarmoq bor. Ser Serfes Jozef bilan Charlz Serfeslarning boy qarindoshi edi. U 15 yil mobaynida Hindistonda katta boylik orttirib, Londonga qaytib keladi. Endi u jiyanlariga o'z boyligini meros qilib qoldiirmoqchi. Avval Oliver Serfes muhtojlikda yashayotgan Charlzning uyiga savdogar qiyofasida boradi. Charlz unga ota-bobolarining portretlarini arzon bahoda sotadi. Navbat Oliverning portretiga kelganda, Charlz bu uning sevimli amakisi ekanligini, ilgari bu odam unga ko'p yordam berganligini aytib, portretni sotishdan bosh tortadi. Xuddi shu Oliver janoblari Jozefning boyliklariga Charlzni merosxo'r qiladi. Charlz hamma oldida sevgani Mariyaga o'z sadoqatini isbotlab, unga uylanadi. Jozef esa badnom bo'lib qoladi.

Asarda aka-uka Jozef bilan Charlz Serfeslar tarixi o'zining kontrast usulda yoritilishi bilan diqqatga sazovardir. Sheridan bu ikkala obraz orqali odamlar haqida tashqi qiyofasi, gaplari va yurish-turishlariga qarab yuzaki hukm chiqarishning nohaqligini ko'rsatadi. Chunki tashqi tomondan qaraganda, juda olijanob ko'ringan Jozef aslida muttaham bo'lib chiqadi. Jozefning pastkashligi Mol'erning Tartyufini, Fildingning Blayfilini eslatadi. Charlz esa ancha engiltak, kayf-safoga berilgan yigit, lekin uning ichki dunyosi sof, chinakam do'stlik va odamgarchilikni biladi, sevgisiga sodiq bo'lib yashaydi.

"G'iybat maktabi" komediyasida mavjud tuzumga nisbatan dramaturgning hajviy nayzasi naqadar kuchli bo'lmasin, unda ayrim burjua oilasini, burjua qahramonlarini ideallashtirish hollari uchraydi. Masalan, Piter Tizl oilasi g'iybatchilardan uzoqlashgach, go'yo yaxshi, ahil, pok oilaga aylanadi.

Sheridan asarida bir qancha komik lavhalardan foydalanadi. Boshqa kishi qiyofasiga kirish, kiyimini o'zgartirib olish, favqulodda tasodiflarning sodir bo'lishi kabi usullar hammasi bir maqsad-o'sha tuzumda hukm surayotgan illatlarni fosh qilish uchun xizmat qiladi. Har bir qahramon xarakterining mohiyati asar voqealarining rivoji davomida asta-sekin ochib beriladi. Dramaturg o'z qahromonlarining nutqini individuallashtirishga mohir. Tomoshabinga esa qahromonlarning tili ularning asl maqsadlarini to'la tushunish imkonini beradi. Sheridan asari jahonning ko'p tillariga tarjima qilindi.

2.3 Samuel Jonson --- serqirra ijodkor

Doktor Jonson Angliyaning XVIII asrda yashab ijod etgan mashhur adiblaridan biri hisoblanadi. U ozmi, ko'pmi Yevropa mamlakatlarida mashhur bo'lsa, bu uning milliylika moyilligi, siyosiy va axloqiy qarashlari kuchliligidan va XVIII asrda Britaniyaning murosaga moyillik g'oyalari tufayli edi. Zamonaviy adabiyotshunoslarning so'zlari bilan aytadigan bo'lsak "Shoir, , tanqidchi, bayonnavis, jurnalist, muharrir, buyuk adabiyotchi shaxs sifatida Jonson Angliya qalam ahli orasida to'liqligicha professionallardan biri edi". Uning antiqa suhbat san'ati Jeyms Bosvelning mashhur "Semuel Jonson hayoti" asarida bayon qilingan (1791 y).

Tanqidchi sifatida u o'zining "Shoirlarning hayoti" asarida va togri yozish qoidalarini kiritgan son-sanoqsiz tanqidiy asarlari va "Shekspirning nasri" (1765 y) asarida u buyuk dramaturgning pyesalarini tahlil qilishda mohirlik va zukkolik ko'rsatgan. Jonson ijodida barcha mavzularga qo'l urgan va uning asarlari juda mashhur bo'lgan va "The Rambler" ("Betartib") hamda "Idler" ("Bekorchi") jurnallarida nashr qilingan. U o'ziga Goratsiydan meros bo'lgan "mamnun qilib o'rgatish" san'atidan foydalangan. Unga shuhrat olib kelgan asari "Ingliz tilining lug'ati edi. Bu lug'at uning so'zlarga bo'lgan qiziqishini, adabiy didi juda yuqori ekanligini ochib beradi.

U ijodkorlik qoidalarini o'qish va " Lotin nashri va nazmini tarjima qilib, shakllantirgan asl insondir. Bu uning rad qilib bo'lmaydigan oqibat, sabab va axloqiy tug'ularga ishonadigan klassisistlar orasidan joy olishiga zamin hozirladi. Uning klassisik nazariyasi "Irena" (1749) tragediyasida va uning bir qancha saitalarida mahorat bilan ifodalab berilgan.

Jonson ommaga axloq targ'ibotchisi sifatida tanilgan. U inson tabiati va jamiyatni haddan tashqari pessimistik g'oyalar sifatida qabul qilgan. U bu xislati bilan ma'rifatchilik davrining boshqa yetakchi namoyondalaridan, masalan, Fildingdan farq qilgan, lekin uni o'z davrining bilim va etikasi o'z davrining aqliy munosabatiga yaqinlashtirgan. Uning tanqidchiligi quyidagicha tushuntiriladi,

ritorik savollarda va aforistik soʻzlarda va mashhur "London" satirasidan parchada berilgan (1739):

Has Heaven reserv'd, in Pity to the Poor,
No pathless waste, or undiscover'd Shore
No secret Island in the boundless Main
No peacefull Desert yet unclaim'd by Spain,
Quick let us rise, the happy Seats explore,
And bear Opression's Insolence no more.
This mournful Truth is ev'rywhere confess'd,
Slow rises Worth, by Poverty depress'd:
But here more slow, where all are Slaves to Gold,
Where Looks are Merchandise, and smiles are sold,
Where won by Bribes, by Flatteries implor'd,
The Groom retails the Favoures of his Lord.

S. Jonsonning "Qaydlar yoki kuzatishlar" nomli asarida yozuvchi ahliga qator maslahatlar berilgan. Jumladan u "yaxshi yozish uchun" uchta shartni bajarish lozim deb uqtiradi. Eng yaxshi adiblarni o'qish, eng yaxshi notiqnlarni tinglash, ko'p mashq qilish Ben Jonson ijod onlarida ilhom kuchi bilan oson yozilishni ta'kidlaydi. Biroq bunga hushyor qaramoq, oson yozilgan narsaga qaytish va uni sabrla sayqallash zarur, zero, tez yozish yaxshi uslubni vujudga keltirmaydi, aksincha uslubni yaxshilash ustida ishlash asta sekin tez yozishga o'rgatadi. Ayni chog'da Ben Jonson tabiat in'om etgan iqtidorni baland qo'yadi, usiz san'atkorligi mahorat, o'rganib olingan qoidalar hech bir kuchga ega emas, deb hisoblaydi.

II Bob yuzasidan xulosa

II bobda biz XVIII asr ingliz adabiyotida drama janrining rivoji va uning rivojiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchilar Semuel Jonson va Ben Jonsonlar ijodi bilan tanishib chiqdik.

XVIII asr ingliz adabiyotida drama janri uyg'onish davri yoki klassisizm davridagidek yuksak darajaga ko'tarila olmadi. Lekin shunga qaramasdan bu sohada ham ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Ingliz dramaturgiyasi rivojiga S.Jonson va B.Jonsonlar xizmati kattadir. Ular bu sohada o'lmas asarlar yaratib, dramaturgiyaga oid ko'plab ajoyib fikrlar kiritishdi. Masalan, Ben Jonsonning "Qaydlar yoki kuzatishlar" nomli asarida yozuvchi ahliga qator maslahatlar berilgan. Jumladan u "yaxshi yozish uchun" uchta shartni bajarish lozim deb uqtiradi. Eng yaxshi adiblarni o'qish, eng yaxshi notiqlarni tinglash, ko'p mashq qilish Ben Jonson ijod onlarida ilhom kuchi bilan oson yozilishni ta'kidlaydi. Biroq bunga hushyor qaramoq, oson yozilgan narsaga qaytish va uni sabrila sayqallash zarur, zero, tez yozish yaxshi uslubni vujudga keltirmaydi, aksincha uslubni yaxshilash ustida ishlash asta sekin tez yozishga o'rgatadi. Ayni chog'da Ben Jonson tabiat in'om etgan iqtidorni baland qo'yadi, usiz san'atkorligi mahorat, o'rganib olingan qoidalar hech bir kuchga ega emas, deb hisoblaydi.

Semuel Jonson ommaga axloq targ'ibotchisi sifatida tanilgan. U inson tabiati va jamiyatni haddan tashqari pessimistik g'oyalar sifatida qabul qilgan. U bu xislati bilan ma'rifatchilik davrining boshqa yetakchi namoyondalaridan, masalan, Fildingdan farq qilgan, lekin uni o'z davrining bilim va etikasi o'z davrining aqliy munosabatiga yaqinlashtirgan.

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishida XVIII asr ingliz ma'rifatchilik davri adabiyotida lirika va drama mavzusi o'sha davrda yashab ijod etgan shoirlar va dramaturglar A.Pop, R.Berns, B.Jonson, R.B.Sheridan ijodi namunasida o'rganib chiqildi. Tadqiqot mavzusini yoritish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

G'arbiy Yevropa, xususan Angliya adabiyoti o'zining ko'p asrlik tarixi davomida o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi.

Adabiyotning jahonshumul ahamiyati shundaki, u hamisha davrning muhim ijtimoiy muammolarini ko'tarib chiqadi, xalq ommasining o'sha masalalarga muayyan munosabatini shakllantiradi.

XVII-XVIII asrlardagi ingliz va fransuz burjua revolyutsiyalari o'rta asrlardagi eski tartiblarni yemirib tashladi. Ming yildan ortiq vaqtdan buyon hukmronlik qilib kelayotgan feodal sistemasiga zarba berdi. Angliyada absolyut monarxiya tuzumi ag'darib tashlandi. Yevropada Angliya birinchi bo'lib kapiatalistik taraqqiyot yo'liga kirdi.

XVII asrda G'arbiy Yevropa adabiyotida yetakchilik qilib kelayotgan klassizm oqimi o'rnini XVIII asrda ma'rifatchilik adabiyoti, to'g'rirog'i ma'rifiy realizm oqimi egalladi.

Mutaxassislar ma'rifatchilikni falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiya yangicha dunyoqarashga asos bo'lgan mafkura deb hisoblaydilar. Yangi mafkuraning o'zagini "inson aqlu zakovati dunyoni o'zgartiradi", degan qarash tashkil etadi.

Ma'rifatchilik adabiyotda, avvalo, o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ham ma'rifatchilik adabiyoti namunalarida ko'pincha qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi.

Bu davrda adabiyotning barcha janrlari rivojlandi. Bu davrda adabiyot, ayniqsa roman janrining paydo bo'lishi va yuksalishiga yo'l ochib berdi. D.Defo, S.Richardson, G.Filding, T.Smollet bu janrning yetuk namoyondalari hisoblanadi.

Lirika, ya'ni she'riyat uyg'onish davri va klassizm an'analarini davom ettirgan holda, ma'rifatchilik g'oyalari bilan sug'orilgan ko'plab yangi asarlar bilan boyidi. Bu borada shotland xalqining buyuk farzandi erksevar, xalqparvar otashin shoir Robert Berns go'zal lirik she'rlar, shuningdek jamiyatdagi illatlarni keskin qoralovchi tanqidiy asarlari bilan mashhur bo'lgan shoirlar Aleksandr Pop, O. Goldsmitlarning xizmatlari beqiyos bo'ldi.

XVIII asr ingliz she'riyatidagi buyuk xizmatlari uchun Aleksandr Poup nomi ingliz adabiyotida benihoyat hurmat bilan tilga olinadi. U o'zining she'rlari, esseylari, ocherk va tanqidiy asarlari bilan mashhur bo'lgan ingliz shoiridir. Uning o'zgarmas nuqtai nazari shunda ediki, u etik va estetik qadriyatlarning chin tarafdori edi. U satirik sifatida ham mashhur adiblardan biridir. U jamiyatdagi illatlarni keskin qoralaydi. Pop she'riyatining g'aroyib va mukammalligi shunda ediki, she'riyat va siyosatdagi dushmanlariga nisbatan achchiq kinoya bilan hujum qilishi uni jamiyatda yengib bo'lmas shaxs hamda yuksak mavqega erishishiga sabab bo'ldi.

Robert Byorns ijodi o'z vataniga cheksiz muhabbat, uning kelajagi va ozodligiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan va uning asarlari o'zining xalqchilligi bilan jahon adabiyoti xazinasini boyitdi. Soddalik, tabiatga yaqinlik, erksevarlik va isyonkorlik Robert Bernsni XVIII asr shoirlari orasidan oldinga olib chiqdi.

XVIII asr ingliz adabiyotida drama janri uyg'onish davri yoki klassisizm davridagidek yuksak darajaga ko'tarila olmadi. Lekin shunga qaramasdan bu sohada ham ahamiyatga molik ishlar amalga oshirildi. Ingliz dramaturgiyasi rivojiga S. Jonson xizmati kattadir. U bu sohada o'lmas asarlar yaratib, dramaturgiyaga oid ko'plab ajoyib fikrlar kiritdi.

Semuel Jonson ommaga axloq targ'ibotchisi sifatida tanilgan. U inson tabiati va jamiyatni haddan tashqari pessimistik g'oyalar sifatida qabul qilgan. U bu xislati bilan ma'rifatchilik davrining boshqa yetakchi namoyondalaridan, masalan, Fildingdan farq qilgan, lekin uni o'z davrining bilim va etikasi o'z davrining aqliy munosabatiga yaqinlashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ilmiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. Toshkent., “Ma’naviyat” 2008 yil.
2. I.A.Karimov “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish – eng oily saodatdir” T, O’zbekiston., 2015
3. Azizov Q., Qayumov O., Chet el adabiyoti tarixi. Toshkent, O’qituvchi. 1987
4. Allen W. “Tradition and Dream” L., Longman. 1965
- 5.. Артамонов С.Д. История зарубежной литературы XVII-XVIII вв. М., Просвещение. 1978
6. Аристотель Поэтика. М., 1967
7. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. М., Просвещение. 1950
8. Chase E.M., Jewett A., Evans W. Values in Literature-Boston: Houghton Mifflin Company, 1965
9. Gegel. Estetika M., 1971
10. Grierson H., Smith G. A Critical History of English Poetry. L., Longman 1966
11. Gritchuk M.A. English for students of Literature. M., 1983
12. Dyakonova N.Y. Three centuries of English poetry. Л., 1967
13. Hecker M., English literature., Moscow: Prosveshenie, 1975
- 14.Izzat Sulton Adabiyot nazariyasi. T., O’qituvchi.,1986
15. Kattle A. An Introduction to the English Literature. v.I Lon. 1957
16. Kearns G. English and Western Literature. USA: Mackmillan. , 1987
17. Miles Dudley, Pooley R.C. Literature and life In England. NewYork: Scot, Foresman and company, 1948
18. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T., Cho’lpon., 1995
19. Shukurov N., Hotamov N. va b.q. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 1984
20. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. II qism, T., O’ qituvchi., 1979

Badiiy adabiyotlar

1. Berns R. Auld Lang Syne. L., 1965
2. Berns R. Is There, for Honest Poverty. L., 1972
3. Daniel Defo Robinzon Kruzo. T., 1968
4. Goldsmit O. The Deserted village. M., 1967
5. Pope A. Epistle to Dr. Arbuthnot . M., 1965
6. Pope A. Prologue to the satire . M., 1976

Lug'atlar

1. Hornby A.S. Oxford Advanced learner's Dictionary, Oxford un. Press.1995
2. Myuller B. K, АНГЛО - русско словарь. M., 1987
3. The Oxford Russian Dictionary M., 2004
4. Quronov D., Mamajonov Z. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, 2010

Internet manbalari:

www.ziyonet.uz

www.uz-translations.uz

http:// [www.english](http://www.englishliterature.online.com) literature. online. Com

Annotation

The aim of present qualification work is the study of specific features of main literary genres, poetry and drama in the XVIII th century English literature. The qualification work consists of an introduction, two chapters, conclusion and the list of used literature.

Introduction deals with the actuality of the theme, aim, tasks, investigation of the problem, scientific and practical value of the paper.

The first chapter is devoted to the general characteristics of the epoch that was called Enlightenment. We focused on the main principles of Enlightenment. It is known the English Enlightenment was a relatively conservative compromise of new and old ideas with current conditions. Since the enlighteners believed in the power of reason, the period was also called the Age of Reason.

Eighteenth-century literature reflects the ideas and interests of the Age of Reason, the Age Classicism, the Age of Elegance. Works show a sense of order and moderation; writers display their «wit», or cleverness. Prose is calm and logical; poems are carefully structured.

The development of poetry is analysed on the basis of the literary career of two prominent poets of the period: A.Pope and R.Burns.

The second chapter is dedicated to the investigation of drama, its evolution and specific features. Drama in the XVIII century continued traditions of Restoration playwrights. It did not reach the same high level as the novel. Main contributors of the genre were B.Johnson and R.B.Sheridan. It was recognized that new element had entered into drama, even if the dramatist who introduced it was obviously not of the first rank. The innovation is far more important than the play, for this way leads, however indirectly, to the modern social and realistic drama.

Conclusion deals with the results that have been achieved during the investigation.